

O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKULTETI O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI METODIKASI KAFEDRASI

5141600-“Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish” yo'nalishi 4 - kurs

401 - guruh talabasi TURSUNOVA BAXTIGULning

“Oilaviy – maishiy ishonchlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasidagi o'rni” mavzusida bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots.A.ERGASHEV

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Pedagogika-psixologiya fakulteti dekani

_____dots.B.JO'RAYEV

“ ___ ” _____2013 yil

Qarshi-2013 y

REJA:

Kirish

I bob. Xalq udumlari – qadriyatlarimizdir.

II bob. Ishonch, e'tiqodlarning yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni.

III bob. Irim-sirimlardagi tarbiyaviy ishonch-e'tiqodlar.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgan kunning dastlabki onlaridayoq xalq qadriyatlarini, urf-odatlarini, milliylikimizni ustuvor vazifa sifatida bajarishga alohida e'tibor qaratildi. Bu vazifalarni amalga oshirish millat ma'naviyati bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab Prezidentimiz I. A. Karimov shunday degan edi: ... ma'naviyat insonni ruhiy poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”.

Yurtboshimiz ma'naviyat haqida yana shunday deb ta'kidlagan: “Ma'naviyat tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi”.

Demak, hozirgi yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash zamini va asosi milliy qadriyatlar va xalqchil an'analardadir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda komil insonni tarbiyalash muammosi avvalo oila bilan, oiladagi muhit, tarbiyaviy mezonlar, udumlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, inonchlar, irim-sirimlar bilan aloqadordir. Behudaga xalq “Qush uyasida ko'rganini qiladi” demagan.

Barcha xalqlarning o'ziga xos udumlari, urf-odatlari, inonch-e'tiqodlari, irim-sirimlari bo'lib, ular uzoq asrlar davomida shakllangan, rivojlangan va tarbiyaviy-ruhiy ahamiyatga ega bo'lganidan xalq qadriyatlarining ajralmas bir qismi sifatida saqlanib kelmoqda. Bu qadriyatlar ayniqsa bizning xalqimizda har tomonlama mukammal, keng, ma'nodan, rangorang shaklda yashab, tosh avlodni hayotga, tabiatga, insonlarga mehr-muhabbat, e'tiqod, oshonch ruhida tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli xalq udumlari inonchlari, irim-sirimlari folklorshunos, elshunos, tarixchi, pedagog, olimlar tomonidan to'planib, o'rganilib tadqiq etish yo'lga qo'yilgan.

Xalq udumlari, inonchlari, irim-sirimlarini tadqiq etishda H. Zarifov, M. Alaviya, B. Sarimsoqov, M. Murodov, M. Sattorov, A. Ergashev, Musurmonova, Jovliyevlar mehnatini alohida uqtirish lozim.

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda xalq udumlari, inonch-e'tiqodlarining yoshlarni tarbiyalashdagi o'rnini ko'proq Dehqonobod tumanida kuzatilgan manbalarga asoslangan holda yoritishga intildik.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi: Mustaqillik milliy qadriyatlarimizni anglashga, saqlashga va yosh avlodga singdirishga imkoniyat yaratishgina emas, balki ustivor vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi.

Milliy qadriyatlarimizning asosiy qismi esa xalqimizning urf-odatlari, marosimlari, udumlari, inonch-e'tiqodlari va irim-sirimlar qatiga saqlanib qolgan. Ular go'daklikdan

keksalikkacha bo'lgan tarbiya vositasi sifatida ham yashab kelmoqda. Istiqloq davrida davr qo'ygan ta'lim tarbiyaviy jarayonni rivojlantirish, toshlarni komil insonlar qilib voyaga yetkazish, milliy g'oya, milliy mafkura ruhida tarbiyalash vazifasi xalq udumlari, inonch-e'tiqodlari va irim-sirimlarini ham o'rganish tadqiq etishni, ta'lim-tarbiyada qo'llashni dolzarb qilib qo'ydi.

Bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi maktabgacha va maktab yoshidagi o'qituvchilarni axloqiy, estetik, ruhiy, aqliy va jismoniy jihatdan barkamol tarzda tarbiyalashda xalq inonch-e'tiqodlari va irim-sirimlarining ahamiyatini ko'rsatishdan iborat.

Mavzuni o'rganish darajasi: Xalq udumlari, inonch-e'tiqodlari va irim-sirimlari xalqning uzoq asrlik qadriyati tarixi, orzu-umidlari mahsuli bo'lib, u millatning mintalitetini o'zida mujassam etadi, davrlar o'tishi bilan o'zgarib, takomillashib, yangilanib boradi. Bu uzluksiz jarayon hamisha ham tadqiqotlarni talab etadi va hozirgacha qator ilmiy ishlar qilingan. Xususan, yoshlarni milliy udumlar, an'analar, inonch-e'tiqodlar, irim-sirimlardagi milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash B. Sarimsoqov, A. Ergashev, O. Musurmonova, M. Sattorov kabi olimlarning tadqiqotlarida u yoki bu darajada yoritilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Maktabgacha yoshdagi va maktab o'quvchilarni milliy g'oya va milliy mafkura ruhida tarbiyalash, axloqan yuksak insonlar qilib voyaga yetkazishda xalq udumlari, inonch-e'tiqodlari va irim-sirimlarining o'rnini aniqlash, ahamiyatini belgilash va oila, maktab, jamoatchilik ta'lim-tarbiyasi jarayonida qo'llash va shu asosda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari: Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutildi.

- 1.Mavzu yuzasidan ilmiy, uslubiy, didaktik, tarixiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish.

- 2.O'rganilayotgan mavzuga doir mahalliy muhitga oid materiallarni to'plash.

- 3.To'plangan materiallar, manbalar asosida bugungi kun talablariga mos keladigan udumlar, inonch-e'tiqodlar va irim-sirimlarni aniqlash.

- 4.Manbalarning milliy tarbiyadagi ahamiyatini asoslash orqali ulardan suhbatlar, munozaralar, darslar, qo'shimcha mashg'ulotlarda foydalanish yo'l-yo'riqlarini uqtirish.

- 5.Oilada, ta'lim-tarbiya muassasalarida, jamoatchilik orasida xalq udumlari, inonch-e'tiqodlari va irim-sirimlardan foydalanishning ilg'or usullarini belgilash.

Tadqiqotda qo'llangan metodlar va uning metodologik asosi: Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslaridan Prezidentimiz I. A. Karimovning qarorlari, farmonlari, nutq va maqolalarida ko'rsatilgan xalq og'zaki ijodining milliy qadriyatlarga doir fikr-mulohazalari, qarorlari, farmonlari, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hukumatimiz va oiliy ta'lim vazirligining buyruqlari, qarorlari hamda

H. Zarifov, M. Alaviya, M. Murodov, B. Sarimsoqov, T. Mirzayev, A. Ergashev, O. Musurmonova singari olimlarning tadqiqotlari tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati: Bitiruv malakaviy ishning yangiligi shundaki, ilk bor xalq udumlari, ishonch-e'tiqodlari va irim-sirimlarining maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash muammosini monografik tarzda tadqiq etishga intildik.

Ilk bor umumo'zbek udumlari inonch-e'tiqodlari , irim-sirimlariga suyangan bo'lsakda mahalliy materiallar Qashqadaryo viloyati jumladan, Dehqonobod tumani hududidagi manbalarni tadqiqotga kiritdik.

Bu sohada tadqiqotlar endi boshlanayotganligi sababli yaxlit tarzda uslubiy yo'l- yo'riqlar ishlab chiqolmagan bo'lsakda, shu sohadagi dastlabki mulohazalarimizni bayon qildik.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: Kirish, Asosiy qism III bob, Xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi sahifani tashkil etadi.

I BOB. XALQ UDUMLARI - QADRIYATLARIMIZDIR

Bola tug'ilishi bilan bog'liq bo'lgan urf-odat, udum va an'analar.

Prezidentimiz I. A. Karimov "Trixiy xotirasiz kelajak yo'q" deb ta'kidlanganidek, har bir joining va har bir maskanning o'z tarixi-yu, urf-odatlari, udumlari bor.

Asrlar mobaynida shakllangan , avloddan-avlodga bebaho meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odat, an'ana va marosimlar ham milliy mafkuraning asosiy g'oyalarini singdirishda muhim omil bo'ladi.

Milliy udumlarimizni o'rganish, targ'ib etish, bugungi kunda urf-odat va an'analarimizning jamiyatni birlashtiruvchi xususiyatlaridan ko'proq, yanada to'liqroq foydalanishimiz lozim. Shu jumladan men yashayotgan shaxsan mening nazdimda jannamakon maskan Qashqadaryo viloyat, Dehqonobod tuman Oqmachit mahallafuqarolar yig'iniga qarashli Cho'binqishlog'ining ham o'zining tarixi, o'sha tarixga mo surf-odatlari, udumlari va an'analari mavjud. Shunday udum va an'analarning biri chaqaloq ya'ni bola tug'ilganda o'tkaziladigan udumlar haqida fikr yuritimiz.

Hammaga ma'lumki, o'zbek xalqi "Bolajon" ya'ni, bolani sevadigan , farzandi uchun jonini ham ayamaydigan xalq hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonimizning 65 % ini yoshlar tashkil etadi. Kelajak yosh avlodlar qo'lida ekan, biz bolalarni ona qornidayoq tarbiyalab, ajdodlarimizdan meros bo'lib avlodlarimizga o'tib kelayotgan udumlarimizni ko'z qorachig'idek saqlab, avaylab kelajak avlodlarga ham yetkazishimiz shart. Urf-odatlar, udumlar va an'analarimiz yo'qolmasligi lozim.

Har bir millat, har bir xalq va har bir joyning o'z udumlari bor. Bunday xalq go'zal udumlari bilan bir-biridan ajralib turadi.

Ona o'z homilasini to'qqiz oy mobaynida asrab-avaylab dunyoga keltiradi. Sobiq sovet davrida tibbiyot rivjlanmagan bir davrda, ayollarning ko'zi yorishida (tug'ishida) keksa, hayotning past-balandini ko'rgan momolar doyalik qilgan.

Momolarimiz chaqaloq dunyoga kelishidan avval kindigini bog'lash uchun oq ipdan bir necha qavatni birlashtirib ya'ni eshib tayyorlab qo'yishgan.

Keksalarimiz yaxshilik uchun nimaiki narsa qiladigan bo'lsa, uning jismida biron bir ma'no yatadi. Shunday ekan chaqaloqning kindigi uchun eshilgan oq ipning o'z ma'nosi bor. Bolaning ko'ngli, ya'ni qalbi oq ipdek oppoq, sof va beg'ubor bo'lsin deb oq ip bilan bog'laydi. Chaqaloqning to' kindigi tushmaguncha kul tashlamaydi. Agarda kulni tashlayversa kindikning tushishi ancha kunga cho'zilar ekan, yig'ib qo'ysa yoqqan o'tinning kulidek tezda quvrab tushar ekan.

Chaqaloq tug'ilgandan keyin uni yo'rgaklab oladi. Ushbu yo'rgak mato keksa yoshi ulug' bobo-momolarimizning ko'ylaklari yoki ro'mollaridan bo'ladi. Bu yo'rgaklangan matoning ham irim-sirimi bor. Buning ma'nosi quyidagicha: avvalo birinchidan chaqaloqning umri uzoq bo'lsin, o'sha bobo-momolardek qarib, umr guzaronlik qilib yursin degani. Ikkinchidan yuvilib sal eskirgan kiyimdan havo yaxhi o'tadi, yuqalashib muloyim bo'ladi. Chaqaloqning terisiga qattiq botmaydi.

Chaqaloq 3-4 kunlik bo'lgandan keyin ko'ylak tikib kiydiriladi. Bu ko'ylakning nomi it ko'ylak deb nomlanadi. Bu ko'ylakni ham yoshi keksa va ulug' momolarning ko'ylak va ro'mollaridan tikishadi.

Bolaga ya'ni chaqaloqqa ko'ylak kiydirishda ham bir qancha irim-sirim ya'ni marosim o'tkaziladi. Bular quyidagilar: birinchi chaqaloqdan oldin ko'ylakni itning boshiga kiydiriladi. Buning ma'nosi shunday, o'sha bola itdek chidamli, hamma narsaga bardoshli bo'lib o'ssin, itdek ulg'ayganini bilmay qolaylik degan ma'nolar yotadi. Agarda chaqaloq o'g'il bola kiyishdan avval qoziq boshiga ham kiydiriladi. Buning ma'nosi kelajakda ya'ni bola ulg'aygach qoziqda ot bog'lanib tursin, chavandoz bo'lsin, yigitning oti bo'lsin degani. Shunday irimlardan yana bittasi, bola 6 (olti) oylik bo'lgancha har qanday yangi kiyim kiydirilganda ya'ni kiydirishdan oldin bolaning oyog'ining tagiga qo'yib keksa yoshli momolar shunday deydi:

Tepib-tepib to'zdirsini,

Yoshini yuzdan o'zdirsini.

deb 3 marta chaqaloqning oyog'ining ostiga bostiradi va shundan keyin kiydiradi.

Chaqaloqning kindigi tushgandan keyin bolani beshikka solish marosimi bo'ladi.

Beshik bu bolaning 1 (birinchi) vatani hisoblanadi. Keyingi paytlarda bolani beshikka belab (tebratsin) tebratish, bolaga salbiy ta'sir etadi degan fikrlar ham ayollarni kulantirib qo'ydi. Bir qancha tajriba sinovlardan keyin chaqaloq ya'ni bola uchun beshik darkor degan xulosaga kelishdi. Beshik tebratish natijasida bola jismoniy mashq qilib barcha tanasi harakatga keladi va bu bolaga ijobiy ta'sir etishi aniqlanadi. Birinchi farzand uchun beshikni kelinning ota-onasi olib keladi.

Beshik duradgor ustalar tomonidan yasali bozorga olib chiqqandan keyin savdo qilib tortishilmaydi. Savdogar ya'ni sotuvchi qancha deb aytsa, xaridor o'shani berib oladi.

Beshikni bozordan olgandan keyin ham o'z holida olmaydi, ustiga biron bir material yopib olib chiqiladi. Buning ham o'z ma'nosi bor, beshik ichidagi bola ushbu yangi materialdek yarqirab yursin degani. Ushbu beshikka bolani belash uchun qizning onasi bir qancha beshik anjumlari ya'ni "Beshiksoz" qiladi. Bu quyidagilar:

1(birinchi) qovus, bu quyidagicha tayyorlanadi. Beshikka moslab material olib tikiladi va ichigabug'doy yoki arpa solinadi, asosan ko'pchilik hollarda archaning bargi quritib solinadi. Chunki, archa bargining yoqimli hidi bo'ladi, bu hid bolani har xil hasharotlardan himoya qilar ekan.

2. (ikkinchi) kichkina yostiqa.

3.(uchinchi) ikkita qo'l bog'. Bittasi bilan chaqaloqning ikki qo'lini bog'laydi, ikkinchisi bilan ikki oyog'ini bog'laydi.

4.(to'rtinchi) bolaning oyog'ini o'raydigan yopqich.

5.(beshinchi) ko'krak yopqich.

6.(oltinchi) tuvak va sumac.

Tuvakni bozordan olib kelganda ichi liq to'la shirinlik bo'ladi. Bu esa shiringina ya'ni shirin so'zli bola bo'lsin degani.

Beshik asosan Dehqonobod tumani qishloqlarida archa yog'ochidan tayyorlanadi, ya'ni yasaladi. Archa (bir asrdan ko'p yashaydigan daraxt hisoblanadi. Shuning uchun uning ichiga belangan bola ham uzoq umr ko'radi degan fikr yotadi. Beshikka bir qancha narsalar taqiladi. Bular ko'zmunchoq, molning oshiq suyagi, qo'ng'iroq kabi. Ko'zmunchoq bu yomon ko'zdan asraydi. Agarda bolaga ko'z tegadigan bo'lsa, o'sha munchoqning ko'zi yoki o'zi sinib tushadi. Molning oshig'ini taqishdan maqsad, bolaning kelgusida mol-holi, boyligi ko'p bo'lsin, shu oshiqdek bolaning suyagi qattiq va mustahkam bo'lsin degan ma'no yotadi. Qo'ng'iroq esa doimo ovoz chiqarib jiringlab turadi, bola uxlash paytida ham shu ovozga o'rgansin, yotgan holda o'shanga qarab yoki ushlab ovunadi, degani bo'lsa, yana ham yaxshi bir niyat yotadi. Qo'y va echkilarni boqib yaylovlarda yurganda Chori yoki Panji (4 yoki 5 yoshar echkinining erkagini shunday deb nomlaydi) sarkalarning bo'yniga qo'ng'iroq taqib qo'yiladi. Bular doimo qo'y-

echkilarning yo'lboshchisi bo'lib doimo oldinda yuradi. Bolaga ham doimo eliga, yurtiga yo'lboshchi bo'lsin deb niyat qilinib qo'ng'iroqni beshigiga taqib qo'yadi.

Beshikning hamma anjomlari qilinib bo'lingach, bolani belashdan avval beshikni olovdan 3 (uch) marta hatlanadi, bu esa beshikdagi bolani barcha ins-jinsdan forug' bo'ladi degan ma'noni anglatadi. Bu narsa qilinib bo'lingach bolani beshikka solish ya'ni belash marosimi bo'ladi. Bu beshikto'y deb nomlanadi. Bunda qarindosh urug', qo'ni-qo'shni chaqiriladi. Beshikka chaqaloqni keksa, yani yoshi ulug', farzandi ko'p momolar solib belab beradi. Bunda keyinchalik ushbu bolaning ham farzandlari ko'p bo'lsin degan ma'nolar yotadi. Bolani beshikka solib birinchi bor belayotganda quyidagi udumlarni bajarishadi. Avvalo beshikka bolani solishda boshini beshik ichiga birinchi kiritisa tez yuradi degan fikrlar yotadi.

Momo bolani belashda shunday deydi: beshikning ikki yon tomoniga yoki past tomoniga bolaning boshini qo'yib, bu yoqqa belaymi deb 4 (to'rt) tomonga qo'yib so'raydi. Yon atrofdagilar ha-yo'q deb javob qaytarishib turadi.

Bolani belayotganda ikki qulog'idan uch marta qichqiradi. Bu quyidagicha aytiladi: qo'rqan yo'q qo'rqmaydi, qo'rqmaydi deb qo'rqqoq bo'lmasligi uchun qytiladi. Bola o'g'il bola bo'lsa 3 (uch) qavat ko'rpa yopadi, buning ma'nosi og'ir, vazmin yigit bo'lsin degani. Qiz bola bo'lsa 7 (yetti) qavat ko'rpa va dasturxon yopadi. Buning zamirida boybicha kelin bo'lsin degan ma'no yotadi.

Keksa, yoshi ulug' momo beshikka solib, og'ziga butun nonni tishlab chaqaloqning og'ziga emirish uchun ko'krak soladi. Bu narsa rizqi butun, nasibasi ulug' bo'lsin degan ma'noni anglatadi.

Otang bilan onang urushsa qo'rqma deb cho'p ya'ni savagich (mahalliy shevada sabov) bilan 3 (marta) ko'rpa ustidan uradi. Bu esa uyqu paytida cho'chib uyg'onmasin, dovyurak, botir bo'lsin degani, keyinchalik esa beshik ustiga turli xildagi konfet, ya'ni shirinliklar sochadi, bolalar qiy-chuvlashib terib oladilar.

Yana shundsay marosimlardan biri, beshikka uyqu ip bog'lanadi, bunda ota-ona, bobo-momo, amma-xola, tog'a va amakilardan uyqu so'rab olinadi. Bobosi yoki ammasi uyqungizdan bering, ular berdim deb javob qaytarishadi. Shunda uyqu olayotgan momo, har bir kishidan so'rab uyqusin oladida qo'lidagi ipini bir marotaba tugib qo'yadi va hammadan uyqu so'rab bo'lgach beshikka bog'laydi. Bu esa bola uyquchi bo'lsin degan ma'noni anglatadi. Beshikka yana bolaning tushgan kindigini ham bola 3-4 oylik bo'lguncha bog'lab qo'yadi. Bu, ya'ni bolaning tushgan kindigi o'sha bolaning ichi damlagan paytda chayib dokadan o'tkazib ichilsa o'sha damni qaytaradi. Bola 5-6 oylik bo'lgandan keyin tushgan kindikni mevali daraxt ostiga, bizlarda ya'ni Dehqonobod tumanining qishloqlarida archa tagiga ko'mishadi. Bu esa

keyinchalik ushbu bola, bolali, chaqali, uvali-juvali bo'lsin, ya'ni serfarzand bo'lsin, archadek asrlab yashasin degan ma'noni anglatadi.

Bola tug'ilgandan boshlab 40 (qirq) kungacha chilla saqlaydi. Chilla ikkiga bo'linadi. 1. Katta chilla. 2. Kichkina chilla. Katta chilla bola tug'ilgan kundan boshlab 20 kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Kichkina chilla 21-kundan 40 kungacha bo'lgan davrdir. Nima uchun bolaga chilla saqlanadi degan savolga shunday javob beramiz.

Bola oppoq qog'oz va qordek beg'ubor bo'ladi. Meditsina ya'ni tibbiyot ta'biri bilan aytadigan bo'lsak: yangi tug'ilgan chaqaloqning qirq kungacha bo'lgan davrda organizmi kuchsiz va juda nafis bo'ladi. Tuli kasallikka qarshi kurashuvchi immunitet bo'lmaydi. Shuning uchun ota-onalardan katta e'tibor talab qiladi. Islom ta'limotida esa ona ham , chaqaloq ham 40 (qirq) kun chilla saqlab biron bir joyga chiqmasdan uyda bo'ladi. Bunda o'sha bola yotgan xonaga begona kishi kiritilmaydi. O'z uyidagi , ya'ni bir uyda yashovchi kishilar ham uy ichiga yugurib yoki boshqa biron bir joydan kelganda, tanasining qizigan holida o'sha bola yotgan xonaga kiritilmaydi. Shu birgalikda yana bir qancha irim-sirimlar ham saqlanadi va ular quyidagilar: bola yotgan xonaga xom yoki pishmagan go'sht olib kiritilmaydi. Kir buyum ham yuvilib quritmasdan kiritilmaydi. Agarda bu narsalarga e'tibor berilmasa bola chilla bo'ladi ya'ni yuziga qizil toshma toshib qoladi. Chunki, bola shu 40 (qirq) kungacha bu muhitga moslasha olmaydi. Deyarli har kuni bolaning chillasi chiqquncha isriq tutatiladi. Bunda bir uyda yashovchi kishilarning ham, chetdan kelgan kishilarning ham buyumidan ya'ni o'ng yengidan quvish (ipning ozroq bo'lakchasi) ip olinadi va isiriqqa solib tutatiladi. Bundan maqsad boladagi ins-jins quviladi. Uy ichidagilar chaqaloqning yaxshi ko'rsa ham suqlanib qolmasin deb har kuni buyumlaridan isiriq berishib tutatib turishadi. Shuni alohida aytish joizki, ushbu qirq kun ichida bola bilan birgalikda ona ham chilla saqlaydi. Bunda ona quyidagilarga e'tibor berib yeyishi lozim:shirinliklardan qattiq konfet va qattiq novvotlarni tishi bilan qattiq tishlab yesa tishi ozorlanar ekan va bu narsa hayotining keying davrlarida ham ta'sir etar, hattoki tishi tushib ketishi mumkin ekan. Shuning uchun keksa kishilar chillalik paytingda o'zingni va tishingni saqla, tish bilan rizqu-nasibangni terib yanchib yeysan deb ta'kidlashar ekan.

Bolaning chillasi chiqadigan kuni ya'ni qirqinchi kuni chilla qovurmoch qilinadi. Bu qovurmoch bug'doydan tayyorlanadi va qo'ni-qo'shnilarga ulashib beriladi. Shu kuni bolaning yostig'i tagiga qo'yilgan kulchacha ham sindirib yeyiladi. Hamma shu kulchachadan ozgina bo'lsa ham yesa tishi mustahkam bo'lar emish.

Bolaga yaxshi ism qo'yish kelajakni belgilaydi deyiladi. Shunday bo'lsada o'tmishda bobo-momolar tug'ilgan kuniga , oyiga qarab ism qo'yishgan. Masalan: haftaning chorshanba kuni tug'lsa Chorshanba, juma kunlari tug'lsa Jumaboy qo'yishgan. Ro'za oyida tug'lsa Ramazon, Ro'zigul, bayram va hayit kuni tug'lsa Bayramali, Hayitgul, to'yda tug'lsa To'ychi,

yo'lda tug'lsa Yo'lchi qo'yishgan. Agar bolaning tug'ilishi osmondagi oy 15 bo'lib to'lgan paytga to'g'ri keladigan bo'lsa, To'lg'anoy va Oytuvg'on deb ism qo'yishgan.

Beshikka solgandan keyin bolaga keksa yoshdagi momolar uy-ro'zg'or buyumi bo'lgan qirg'ichni o'choqdagi olov cho'g'iga qizdirib, dog' bosib ism qo'yishgan. Shu kundan e'tiboran bolani ism bilan atay boshlagan.

Beshikdagi bolaning boshiga kichkina kulcha, piyoz va pichoq qo'yishgan. Kulcha – rizq-nasibasi butun bo'lsin, piyozni achchiq bo'lganligi uchun ins-jinsni qirquvchi deb qo'yishgan. Pichoq – balo-qazodan asraguvchi, hamma narsani kesuvchi tig' hisoblanadi. Bu narsalar yaxshi niyat tilab, bola uxlaganda ijobiy ta'sir etadi.

Ko'pgina hollarda bola normal holda rivojlangan bo'lsa, 6 (olti) oyligida o'tiradi. Keksalarimiz shuning uchun ham bolani olti oyda otib ursang ham o'tiradi deyishadi. Bir yoshga to'lgandan keyin yurishga harakat qiladi. Bola birinchi bo'lib bir-ikki qadam tashlagan paytda yurganin ko'rib ota-onasi va yaqin kishilari xursand bo'ladilar. Bunda o'ziga xos bo'lgan marosim va udumlarni o'tkazadi. Bir necha bolali ayollarni chaqirib, yurgan bola boshiga turli xil shirinliklar sochishadi. Bolalar xursan bo'lishib terishib olishadi. Onasi bolaga atab bir necha kulchalar pishiradi va shu kulchalarni bolaning oyog'ining tagiga dumalatishib bolalarga sindirib yedirishadi. Shu udumlarni o'tkazgandan keyin bola o'zi mustaqil holda yaxshi yurib ketadi.

Bola 1 (bir) yoshga to'lganda tug'ilgan kun va soch to'y qilinadi. Birinchi yoshni keksa yoshli bobo yoki momo birinchi bor qaychi tekkizib olib beradi, keyin esa bolaning otasi yoki onasi davom ettirib olib tashlaydi. Bolaning sochi olinayotganda osmondagi oy 15 (o'n besh) bo'lib to'lgan bo'lishi shart. Bu marosim o'tkazilayotganda hmam dasturxonga turli tuman taomlar toetiq qilinib mehmonlarga ulashiladi. Bu narsalar o'tkazilsa, bolaning kelajakda rizq-nasibasi ko'p bo'lib oy ya'ni to'lin oy to'lgandek to'lib-toshib yuradi.

Islomda, ya'ni musulmonlarda asosan bolaning qulog'iga azon aytiladi. Azon aytirish ota-onaning burchi hisoblanadi. Azonni asosan eshon yoki mullalar aytgan. Azon aytirishda ham qo'ni qo'shnilar chaqirilib, turli taomlar dasturxonga tortilib, kelgan mehmonlarga ulashiladi.

Ota-bobolarimiz bolaning qulog'iga azon aytirilmasa musulmon bo'lmaydi deyishadi.

Shular bilan birgalikda bola 5-7 yoki ko'pi bilan to'qqiz yoshga to'lishi bilan o'g'il bolalarga sunnat to'yi qilinadi. Bunda ham

Elga osh berish-u

To'y-u tomosha

Otaning burchidir

Bo'lsa imkoni: deya islomda ya'ni musulmonlarda ota-ona o'g'il bolani sunnat qilishi farzdir.

II BOB. ISHONCH, E'TIQODLARNING YOSH AVLODNI TARBIYALASHDAGI O'RNI

O'zbek tilining izohli lug'atida "Irim" so'ziga shunday ta'rif beriladi: "Biror maqsad, niyat bilan qilingan xurofiy tadbir, masalan to'ydan yaxshi-yaxshi niyat bilan biror narsa olib ketish, dard-baloni qaytarish, ziyon zahmatdan, ko'z tegishdan saqlash uchun biror narsani boshdan o'chirib tashlash. Bu izoh bir muncha to'g'ri bo'lsa-da, xalq irim-sirimlarining asl mohiyatini ochib bera olmaydi. Avvalo irimning barchasini xurofiy ta'bir sifatida baholash to'g'ri emas. Chunki: Xurofot xudoga, dinga, diniy e'tiqodlarga berilish, dev, pari, jin kabi g'ayri tabiiy kuchlarga ishonish va sig'inish tufayli yuzaga kelgan urf-odatlar, irimlar – degan ikkinchi bir izohdan kelib chiqsak, urf-odatlar, irim-sirimlarda xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari ham aks etganini shubhaga qo'ygan bo'lamiz. Chunki, ular zamirida haqiqat, siz-biz ko'ra olmaydigan ijobiy va salbiy quvvat mavjud. Islomda ham uning muqaddas kitobi Qur'oni karim, tabarruk hadislar va xalqona qarashlarda ham haqiqatga asoslangan irim-sirimlarga duch kelamiz. Irim-sirim e'tiqod bilan yonma-yon yashaydi. Biroq e'tiqod, irim-sirim bilan bid'at, yolg'on yashiq uydurmalaridan iborat. Irim-sirimlarni aralashtirib yubormaslik kerak.

Aytaylik, Alloh yaratgan chashmaga borib suv ichamiz, hatto xastaliklarga shifo deb uyga olib qaytamiz. Sog'ayamiz ham. Bu e'tiqodmi? E'tiqod! Irimmi? Irim! Qur'oni karimni Allohning kitobi deb sog'inamizmi? Sog'inamiz. E'tiqodmi? Ha. Uni "yomon bo'ladi", "gunohga qolamiz" deb hamma joyga emas, eng muqaddas, tabarruk joyga qo'yamizmi? Har doim tahorat qilgan holda, poklanib qo'lga olib o'tib ko'zga surtib qo'yamizmi? Albatta. Bu e'tiqoddanmi? E'tiqoddan. Demak, irimmi? Irim.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. E'tiqod va irimlar yonma-yon. Biz islomiy bilimlardan, Alloh irodasi bilan yuzaga kelgan va hayotiy tajribalardan o'tgan irim-sirimlaru e'tiqodlar mohiyatini bilmasdan gapiraveramiz.

Xo'sh, irim-sirimlarning ahamiyati nimalardan iborat?

Birinchidan, irim-sirimlarning tag zaminida biz anglab yetmagan, uchinchi ko'z – qalb ko'zi bilan ko'ra oladigan, anglay biladigan haqiqat yotadi. Shu sababli ular yashovchan, ta'sirchan bo'ladi.

Ikkinchidan, irim-sirimlar hayot haqiqatlari, muammolari va sir-asrorlaridan kelib chiqqan hayotiy va xayoliy hususiyatlarga ega bo'lib, odamlarning yashash tarzida muhim rol o'ynagan va o'ynaydi.

Uchinchidan, juda ko'p yozma va og'zaki yozma ma'lumotlarda irim-sirimlarlar xalq va malakat hayotida juda katta, ba'zan hal qiluvchi ahamiyatga molik bo'lganligi ta'kidlanadi. Shu o'rinda birgina misolni – buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temurning safarga chiqishi yoki jangga kirishi oldidan muqaddas Qur'oni karimni ochib undagi oyatlar va suralarga qarab ish tutishidek irimlarini slatib o'tish kifoya.

To'rtinchidan, hamma irim-sirimlar haqiqat, ularga ishonish kerak, deyish xatodir. Sinov tajribalardan muvaffaqiyat bilan o'tgan, kishilar hayotida ijobiy quvvatga olib keldi. Bu ham Alloh irodasi, Mustaqilligimiz sharofati bilan bo'ldi, desak xato qilmagan bo'lamiz. Demak, hayotimizdagi har bir hodisa, har bir voqea, har bir say-harakatlarimiz ilm-fan sohasidagi yutuqlarimiz yaratgan ulug' zotning irodasi, ko'ngil ilohidir.

Demak, irim-sirimlar haqiqat, siz-biz ko'rolmaydigan ijobiy va salbiy quvvat yotadi. Islomda ham, uning muqaddas kitobi – Qur'oni karim, tabarruk hodisalarda ham haqiqatga asoslangan irim-sirimlar mavjud. Irim sirim bilan e'tiqod yonma-yon yashaydi. Ammo e'tiqod irim-sirim bilan bid'at, yolg'on –yashiq uydurmadan iborat irim-sirimlarni aralashtirmaslik kerak.

Alloh yaratgan chashmaga borib e'tiqod bilan suv ichamiz, badanlarimizga surtamiz, hatto xastalarimizga shifo bo'lsin degan maqsadda uylarimizga olib ketamiz. E'tiqodmi? E'tiqod! Irimmi? Irim! Qur'oni karimni Allohning kitobi deb sevinamizmi? Sevinamiz. E'tiqodmi? E'tiqod!. Uni "yomon bo'ladi", "gunohga qolamiz" deb hamma joyga emas, eng

muqaddas, tabarruk holiroq joyga qo'yamizmi? Har ushlaganda tahoratimiz bo'lib, ya'ni uni o'pib ko'zga surtib qo'yamizmi? Albatta. Bu e'tiqoddanmi? E'tiqoddan. Demak, irimmi? Irim. Bunday misollardan yana ko'plab keltirish mumkin. Demak e'tiqod bilan irimlar yonma-yon. Biz islomiy bilimlardan olloh irodasi bilan yuzaga kelgan va hayot tajribasidan o'tgan irim-sirimlaru, e'tiqodlar mohiyatini bilmasdan gapiraveramiz.

Xo'sh, irim-sirimlarning ahamiyati nimalardan iborat. Birinchidan, irim-sirimlarning tag zaminida biz anglab yetmagan, uchinchi ko'z – qalb ko'zi bilan ko'ra oladigan , anglay biladigan haqiqat yotadi. Shu sababli ular yashovchan, ta'sirchan bo'ladi. Ikkinchidan, irim-sirimlar hayot haqiqatlari, muammolari va sir-asrorlaridan kelib chiqqan hayotiy va xayoliy xususiyatlarga ega bo'lib, odamlarning yashash tarzida muhim rol o'ynagan va o'ynaydi. Uchinchidan, juda ko'p yozma va og'zaki yozma ma'lumotlarda irim-sirimlarlar xalq va malakat hayotida juda katta, ba'zan hal qiluvchi ahamiyatga molik bo'lganligi ta'kidlanadi. Shu o'rinda birgina misolni – buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temurning safarga chiqishi yoki jangga kirishi oldidan muqaddas Qur'oni karimni ochib undagi oyatlar va suralarga qarab ish tutishidek irimlarini slatib o'tish kifoya. To'rtinchidan, hamma irim-sirimlar haqiqat, ularga ishonish kerak, deyish xatodir. Irim-sirimlarning barchasiga ishonavermaslik lozim. Sinov tajribalardan muvaffaqiyat bilan o'tgan kishilar hayotida ijobiy quvvatga ega bo'lgan, haqiqatga boshlovchi, foyda keltiruvchi, ishonch-e'tiqodga asoslangan irim-sirimlar bilan yolg'on, soxta, ishonchsiz, salbiy quvvatga ega irimlarning farqlarini ajrata bilish, mohiyatini anglay olish zarur.

Balkim bizning aytayotganlarimiz bahs, talabdir. Mayli, bahs talab bo'lsa bahslashaylik. Axir, haqiqat bahslarda zuhur bo'ladiku? Olloh haqiqat. Haqiqatga erishish esa bahs, munozara va ilmiy tortishuvlarda-ku! Bizning eng daxshatli xatomiz ilmiy ijobiy bahs, munozara, tortishuv, bellashuvlarni unutib qo'ydik. Bahslashish madaniyatini bilmaymiz. Shu o'rinda yana bir fikrni ta'kidlab o'tishni istar edik. Ma'lumingizkim, hadis-shariflardan birida hazratimiz Muhammad janoblari niyat dilning amali ekanligini eslatib o'tadilar, ya'ni yaxshi niyatlarga yozilajak savoblar hali amalga oshmagan sababli ishlarning darajasidan-da yuqori bo'lar ekan. Demak, yaxshi niyat, orzu-umid va ishonch, e'tiqod bilan chambarchas bog'liq irimlarga ishonish mumkinligi, ularga ishonish, amal qilib yashash, ishlash gunohi azim bo'lmaydi. Yuqorida aytganimizdek hammasi ulug' zotning irodasiga bog'liq ekan, istaymizmi-yo'qmi, ota-bobolarimiz ishoni e'tiqodda bo'lib kelgan irimlar ham hayotimiz, shuurimiz, yashash tarzimizdan joy olishi tabiiydir. Darhaqiqat, mehmo,n, mehmondorchilik, non, suv, tuz, odamgarchilik, insoniy fzilatlar, shuningdek kitob, vatan, ona zamin, hayvonlar, parranda-yu darrandalar, o'simliklar, qo'ni-qo'shnichilik, mahalla-ko'ychilik, el-yurt bilan bog'liq va yaxshilikka , ezgulikka undovchi irimlardan voz kechib bo'ladimi. Bizningcha yo'q. Darhaqiqat, xalqimizning kundalik turmushida inson hayotiga xos bo'lgan muhim voqealar: dunyoga kelish,

ya'ni tug'ilish, voyaga yetish, turmush qurish, farzandlarni tarbiyalash, o'lim va dafn, dorilfanodan dorilbaqoga ketganlarni xotirlash va boshqalar bilan bog'liq irim-sirimlar asrlar mobaynida kishilar turmushi va ongiga singib ketgan. Ana shunday boy va murakkab irim-sirimlarni atroflicha o'rganish, tahlil etish, ulardan foydalana bilish lozim. Nima uchun ayollar erkaklardan ko'ra ko'proq irimga amal qiladilar? Darhaqiqat, ayollar irim-sirimlarga ko'proq berilgan, ularga ishongan va amal qilgan holda yashaydilar. BUnig turli tuman obyektiv va subyektiv sabablari bor, albatta.

Ayolning o'zi turgan bitgani mo'jiza. Ilohiy xilqat. Axir, u yo'q yerdan Allohning irodasi, o'zining mo'jizaviy sir asrorlaridan yangi bir "Inson" yaratadi-ku. Butun a'zolaridan ozmi ko'p olib -yulib , farzand, zurriyod hosil qiladi-ku! Ana shu yangi insonni qanday bo'lmasin omon saqlash, vaqti soati kelganda hayotga berish harakatida yashaydi. Shu bois unda har qanday yaxshi, ijobiy irim-sirimga "mukkasidan" ketish ustun turadi. Ochig;ini aytganda, ayollarda irim-sirimlarga berilish, ko'z ochib dunyoga kelishidan boshlab, bolalik, yoshlik, balog'at yoshi xususan turmushga chiqish, homilalik vaqtlarida xudo kuchli bo'ladi. Ularda irimga ishonish go'yo balo qazolardan saqlanish, maqsadga erishish omillaridan biriday kechadi. Homila nishonasi bor ayollarning qanchadan-qancha irim sirimlarga amal qilishini bir eslaylik. Xonada yolg'iz qolmaslik, qorong'uda , ya'ni shomdan keyin o'zi kochaga chiqmaslik, uch ko'cha boshida turmaslik, shoh-sultonlar yayov boradigan joyga bormaslik, tug'mas ayollardan uzoqroq bo'lish, daryo, ko'l, hovuz, ariq, kanallar yoqasiga bo'lmaslik, cho'g', gulxan, kulni tepmaslik, axlatlar oldida turmaslik, kiyim-kechagini tunda ochiq havoda qoldirmaslik, tishlab turgan noni-yu, ichib turgan choyini boshqalarga bermaslik, yolg'iz oyoq yo'ldan yurmaslik, , molxonaga yakka-yolg'iz kirmaslik. Tushgan soch, olingan riienoqni ko'ringan joyga tashlamaslik, mag'zava to'kilgan terdan hatlab o'tmaslik, bozor-o'char qilmaslik, ot-ulov, mol-qo'y bilan yaqindan aloqada bo'lmaslik, uyda kir saqlamaslik, idish-tovoqni yuvuqsiz qoldirmaslik, vaqt-bevaqt kishilarni xususan begonalarni yotoqxonasiga qo'yimaslik va yana qanchadan-qancha irim-sirimlar o'zining ko'rinmas iplari, ruhiy ta'siri, yaxshilik, ezulik "alomat"lari bilan ayollarani chambarchas bog'lab oladi. Ayniqsa, irim-sirimlarga ishonish ularga amal qilishdan kuchaya boradi. Ular yoniga yangidan-yangilari qo'shila boradi. Mana, ayol homilasi yaqinlashgan, ya'ni to'lg'oq tutish jarayonida amalga oshirilgan , oshirilayotgan irim-sirimlardan ba'zi birlari: o'choqda qumg'on, choydishi shaqur-shuqurlatib qaynatish, olov yoqib, alanga oldirish, darchalarni ochib qo'yish, tugun holatdagi narsa buyumlarni yechib qo'yish, eshik zanjiri, zulfini tutish, eshikni (turumli) ochib, yopib turish, ot-ulovni hovlida choptirishi, it irillatish, bolalarni uyoqdan-buyoqqa choptirish, isiriq tutatish, ona ro'parasiga chaqaloqqa atalgan kiyimboshni osib qo'yish, tunuka taxtalarni urib ovoz chiqarib turish, ko'k, yulduz, quyoshga qarab qo'lni cho'zib duolar qilish, hovlini aylanib yovuz kuchlar – deb, alvasti,

ajina, jinlarni “quvish” , hovliga suv sepish, ko’cha , eshikni lang ochib qo’yib, oldida qo’l qovishtirib turish, otani uydan quvib chiqarish, ot, mol, qo’yni bo’shatib qo’yish , momochi (doya kampirning) ikki qo’llab chapak chalgan holda u tomonga, bu tomonga sallona-sallona yonboshlab “raqs”ga tushish holatiga kirishi, tug’ayotgan ayol xonasi oldiga ot-ulovni olib kelib ushlab turish, itga non yoki boshqa ovqat berish, mushukni quvish, qozonda jiz-piz qilish, momochi onaning “ana keldi bolam, mana keldi onam” deb ovoz chiqarib turishi “Keldi, keldi bolam keldi, yana bir harakat qil onasi yoki “qizim, oppog’im, do’mbog’im” deb xitob qilishi undan bola kelishiga to’siq bo’luvchi “yovuz kuchlar”ni haydash, doya momoning o’zi ham mana bundoq” deya kuchanishi , yo’l yo’riq ko’rsatishi, xonaga suv, cho’g’ qo’yish, isiriq tutatish. Eshik oldiga soqqa, qora tosh, oshiq yoxud qo’g’irchoq qo’yish, yosh va bo’yga yetgan qizaloqlarni kiritmaslik, olov-alangaga ayricha e’tibor berish. Shuni e’tirof etish kerak, ayollar tug’ilgandan to tuqqungacha bo’lgan davrda rang-barang irim-sirimlar og’ushida bo’ladi, ularning ruhiy ta’siri va kuch quvvatidan ozilanadilar. Xo’sh bunga sabab nima? Yuqorida aytganimizdek obyektiv-subyektiv ta’sir kuchi qayerda?

Ayollarning irim-sirimlarga ishonuvchan bo’lishlari, undan keragicha foydalanishiga moyilliklarining sababini ularning o’zlaridan izlash kerak. Aytilgandek, ayol o’ziga xos sirli olam, mo’jizalar mo’jizasi. Ayolning biologic xususiyatlari-yu, dunyoqarashi, tafakkurlash qobiliyati, Alloh bergan o’ziga xos xususiyatlari, sa’yi harakatlari ham ularning irim-sirimlarga ko’proq moyil bo’lishlari, amal qilishlariga sabab bo’ladi. Qisqasi, ayol – ayolda. Kuch-qudratlilik, yaratuvchi-bunyodkorlik ham, zaif-ojizlik ham unda mujassam. Shu o’rinda muvaqqatda Qur’oni karim tabarruk hadisi-sharifdagi ayollar haqidagi ilohiy-hayotiy fikr-mulohazalarni keltirishni joiz deb bilaman: Mana, ulardan biri “Erkaklar tushi ayollarga nisbatan afzaldir, chunki haq subhonu va taolo ularni bir necha marta ayollardan ustunroq qilib yaratgan.

Alloh taolo tushdagi ayol bilan erkakni bir qilmagan ekan, irim-sirimlarga ishonish, amal qilishga ham ular o’rtasida farq bo’lishi tabiiy bir holder. Buning ustiga ayollarda biz bilgan-bilmagan sir-asrorlar bor, alloh uni erkaklardan sir saqlagan bo’lishi ham mumkin va yana ayollarimiz biz bilgan va bilmagan ana shu sir-asrorlar ila dunyoga bergan farzandlarini balo-qazolardan saqlab asrar degan ma’n’da irimlar ta’sir kuchiga ishonadilar. Qizig’I, shundaki, ayollar amal qiluvchi irim-sirimlar, biz xoxlaymizmi-yo’qmi ijobiy natijalarga olib kelgan hollari hayotda ko’p bo’lgan.

Xalq orasida keng tarqalgan irimlarning bir turi a’zolarining , xususan ko’zning uchishi(harakati, tebranishi)dir. Aholining asoosiy qismi ko’z uchishini yaxshi va yomon holatlar belgisi sifatida tushunadi va shunga ishonadi.

Ko'z uchishi, ya'ni o'ng ko'z uchsa xursandchilik, yo chap ko'z uchsa xafagarchilikdan nishona deyishlariga qanday qaraysiz? ostini aytadigan bo'lsam ishonib qarayman. Mualliflar o'ngmi-chapmi ko'z uchishidan yo yaxshilik, yo yomonlik ro'y berishga qattiq ishonganlardan. Inson tirik jon, jonli organism. Undagi bir-biri bilan chambarchas a'zolar bir-birlarini qo'llab-quvvatlashlari, o'zaro yordam berishlari, birgalashib ishlashlari, faoliyat ko'rsatishlari mumkin emasmi? O'ng qo'l og'riganda chap qo'lga ham o'tishi, o'ng oyoq og'riganda chap oyoq ham biroz sustlashishi kuzatilgan asosli fakt va dalillardandir!

Demak, chap ko'z yoki o'ng ko'z uchishi bunda ko'z uchmaydi – qovoq uchadi, buni sedan chiqarmaslik kerak, biron bir yaxshi yomon hodisadan xabar berishi mumkin. Ammo bir narsani ta'kidlab o'tishni istar edim. Chap o'ng qovoqning uchishidan keladigan natija hammadagi bir xil kechavermaydi. Masalan, bir kishida o'ng qovoq uchsa – yaxshilik, chap qovoq uchsa esa yomonlik kelishi yoki aksinchi bir kishida o'ng qovoq uchsa – yomonlik, noxush xabar, chap qovoq uchsa – yaxshilik ro'y berishi mumkin. Buning ustiga xalqda ayolning chap ko'zi uchsa yaxshili bo'ladi, chunki u chap qovurg'adan yasalgan, o'ng qovoq uchsa yomonlik bo'ladi degan gap ham bor.

Biz juda ko'pchilik bilan ko'z, ya'ni qovoq uchishi bilan bog'liq bo'lgan voqea-hodisalar yuzasidan suhbatlar olib bordik. Ularni nomma-nom keltirishning iloji yo'q. Umumlashtirilgan holda shuni aytmog'chimizki, xalqning 60-70 foizi ko'z uchishining oqibat natijasiga ishonadi. Yaxshi yo yomon voqea sodir bo'lishini kutadi. Shaxsan, o'ng ko'zim uchdi – yaxshilik bo'ldi, yoki chap ko'zim uchib qo'ydi-ya. Shu yomonlikdan xabar bergan ediya” degan iboralarni ko'p eshitganmiz. Darhaqiqat ko'z uchgandan keyin xushhabar yohud noxushliklar ro'y berganini ko'p shohidi bo'lganmiz. Ha, ko'zning yaxshi-yomonlikdan xabar berishi xalq ongiga chuqur o'rnatilgan odatlardan biridir. Unga yosh ham, keksa ham ishonadi. Xalqimiz ko'zning surunkasiga uchaverishining “oldini” olishni ham biladi. Ko'z haddan ziyod betinim uchaversa qo'lning panjasini ho'llab unga tegizish, panjani o'pib uchgan ko'zga surtish, somon parchasi yoki cho'p sindirib qovoq ostiga bosish va boshqa shular jumlasidandir. Shuni aytish kerakki, ko'z uchish va umuman ko'z bilan bog'liq rasm-rusum, urf-odatlar xalqning yomonlik va yaxshilik bilan bog'liq iboralari ko'p. Masalan: “Ovqatga ko'z tegdi”, “o'ltirishga ko'z tegdi”, “Ko'zimni o'ynatib ketdi”, “Ko'zmi-peshona”, “Ko'zi tegdi”, “Ko'zli odam”, “Ko'zi qora toshni qoq yoradi”, “Ko'zim to'rt bo'ldi”, “Ko'zi yo'lda qoldi”, “Ko'z boylag'ich” shuningdek, ko'z bilan aloqador qarg'ishlar, olqishlar, duolar: ko'z tegmasin, ko'zdan saqlasin, ko'zi teshilsin, ko'zing oqqur, Shunday qilib, ko'z insonning eng nozik, kerakli azolaridan biri bo'lganligi, u hech qachon aldamasligidan unga ishonish, uning hayotiy va ilohiy “xizmati”, ruhiy madadi, ko'magi – uchganda ishonish-ishonmaslikni keltirib chiqargan. Uzoq yillik tajriba, ishonch-etiqodlar unga bog'liq xususiyatlarni mustahkamlagan. Yana shunisi qiziqki, ko'z

uchganda yaxshi-yomon voqea-hodisaning ro'yi berishi yoxud yaxshi-yomon xulqli kishini uchratishi ham uchinchi qalb ko'zi bilan ko'rish mumkin bo'lgan ilohiy-ruhiy hodisalardandir. Darhaqiqat, insonda siz bilan biz oddiy ko'z bilan ko'ra olmaydigan, eshita olmaydigan, his etolmaydigan qandaydir ruhiy-ilohiy xususiyatlar, siru-sinoatlar ko'p. Ularni yaratgan parvardigorning o'zi biladi, anglaydi, sodir etadi. Bo'lmasa, bola engashib choti orasidan ortiga qarasa albatta eshikdan mehmon kirib kelishini, payolada shama tik tursa kimdir qadam ranjida qilishi yoxud qarg'a "qa-qa" yo yomon yo yaxshi voqea sodir bo'lishi yoxud mehmon tashrif buyurishi, boyo'g'li degan qush "ku-ku" lasa kimdir hayotdan ko'z yumishi kabi inson, ekologiya bilan bog'liq yuzlab-minglab irim-sirimlarning ma'nosi, yechimi muallaq qolgan bo'lardi. Ha, irim-sirimlar inson hayoti, vujudi va ish-faoliyatini o'rab lgan. Ulardan to'g'ri foydalanish, qo'llay bilish foydadan holi emas. Ular inson uchun yupanish tasalli, ayni chog'da ogohlantirish vositalaridandir.

Uozq ajdodlarimiz oilada, ijtimoiy hayotdagi narsa-predmetlar ish quollariga ham turlicha munosabatni ifodalaydigan irim-sirimlarni yaratganlar va ularga bugungi kunda ham amal qilinadi. Shulardan biri barcha oiladagi tozalash vositasi bo'lga supurgidir. Supurgini tik qo'ymaslik tasodifan oyoq-qo'ltegitib ketsa bir donasini sindirish, tunda uy ichi hatto ostonada qoldirmaslik, undan hatlab o'tmaslik, supurgi yog'ochi-cho'pidan tekkan ovqat, non-tuzni iste'mol qilmaslik. Supurgini badanga, hatto ust –boshga tekkizmaslik, hovli-joyni bir vaqtda ikki kishi supurib-sidirmaslik, bog'cha-uyga supurgi o'simligini ekmaslik, ishlatilib bo'lingan supurgini yoqib yuborish, kelinchak ro'zg'origa supurgi qo'shmaslik, yomon xulqli kishi orqasidan u bosgan-ketgan joyni supurish, supurgini yoyilib, sochilib yotishiga yo'l qo'ymaslik, supurgini qo'lda tutgan holda gaplashib turmaslik qo'ni-qo'shniga supurgi berish yo olish mumkinmaslik, supurgini o'tin, yem-xashakka aralashtirmaslik, erkak kishining huda-behudaga supurgi ushlamasligi, supurgini to'g'ri kelgan joyda qoldiravermaslik kabi o'nalb irim-sirimlar ham supurgi bilan bog'liq bo'lib, uning hayotiy, ruhiy vazifasidan kelib chiqqan deyish mumkin. Supurgi, bir tomondan falokat, yomonlik, kulfatkeltiruvchi, ikkinchi tomondan, yomonlik, falokatlarni bartaraf etuvchi, xona-hovlilarni ana shunday salbiy hodisalardan supurib-sidiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Ha, xalq nazdida va tajribasida supurgi falokat belgisi, ayni chog'da falokat va yomonlik, yovuzlik va noxushlikni o'ziga oluvchi, undan tozalovchi vositadir. Supurgidagi ana shu xususiyatlar u haqdagi o'nlab irim-sirimlarni keltirib chiqargan. Qizig'I shunda-ki, xalqning katta-yu kichigi, erkagu-ayoli ana shu irim-sirimlarga ishonadi, tayanadi, suyanadi. Shu bois supurgini hech qachon tik holda qoldirmaydi, undan hatlab o'tmaydi, eskisini uyda ochiq joyda qoldirmay yo ko'madi, yo yoqadi. Hovli-joyni faqat hayotdan ko'z yumgan kishinikidagina ikki supurgi bilan supuriladi. Professor M. Murodov va A. Ergashev kabi folklorshunoslar yaratgan

xalq ijodi, elshunosligi va qadriyatlariga oid bebaho merosbi o'rganib kelish bilan birga xalqimizning to'rt unsure: suv, olov, yer, havoga oid qadimiy e'tiqodlar, odatlarm rasm-rusumlar, irim-sirimnlarni ham to'plagan. Darhaqiqat, to'rt unsure xususan, hayotimiz manbai suv bilan bog'liq e'tiqodlar va irim-sirimlar juda ko'p. Bu o'rinda e'tiqod bilan irim-sirimlarning farqi, o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr kiritishni kelgusiga qoldirib, birgina "Tushingni suvga ayt" iborasiga boshqacha aytganda tushni suvga aytish irimiga to'xtalsak. Darhaqiqat, nega tushimizni xususan, dahshatli tushimizni suvga aytish kerak. Bu ibora shunchaki odatiy aytilgan gap-so'zmi va yo xalq donoligining, siru-asrorining bir ko'rinishimi? Uning tag zamirida qanday ma'no, mantiq yotadi?

Dastavval aytish kerakki, yuqorida ham ta'kidlanganidek, suv bilan bog'liq irim-sirimlar ko'p va xo'b. Ularning hammasini sanab o'tishning imkoni yo'q. Ba'zi birlarini eslab o'tish orqali yuqoridagi xalq iborasini tavsif qilish mumkin. Ma'lumki, qadim-qadimlardan suv hayot manbai, poklanish vositasi, to'rt unurning biri sanalib e'zozlangan, unga e'tiqodda bo'lingan. E'tiqod irim-sirimni, ayni chog'da uning aksi, irim-sirim e'tiqodni yuzaga keltirgan. Demak, suvga e'tiqod unga atalgan irim-sirimlarni keltirib chiqargan. "Suvga haq to'lab qurbonliklar qilish, suvga atab butxonalar bunyod etish, suvni sizlash, unga sajda qilish, sog'inish, xilma-xil irim-sirimlarni amalga oshirish, suvni jonli deb bilib, sha'niga duo-olqishlar aytish, hamdu'sanolar o'qish, tomchisini aziz bilib isrof qilmaslik, obi odam obrzaini yaratish, suvni timsollashtirish, bulut chaqirib yomg'ir yog'dirishlar, hovuz, daryo, ko'l, sardobalar haqini to'lash. Yomg'ir suviga soch yuvish, qish chillasi suviga yuzni ya'ni quyosh nuri ta'sirida kuygan yuzni yuvish, suv bilan davolash. Oqizak, buloq va boshqa suvlarni muqaddaslashtirib qadamjolarga aylantirishlar suv parisi, suv devi, suv ajdarhosi kabi tushunchalar shular jumlasidandir. Suvga bo'lgan ixlos, sig'inish, e'tiqod ancha-buncha irim-sirimlarning yuzaga kelsihiga sabab bo'lgan. "Tushingni suvga ayt" iborasining paydo bo'lishi ha shundandir. Bu iboraning ham hayotiy, ham ilohiy, ham fantastic ma'nolari bor. Hamma tush ham suvga aytilavermaydi. Faqat daxshatli, qo'rqinchli va kishilarga aytsa noxush ta'bir qilinadigan tushlarni suvga aytiladi. Buning sababi nimada? Fikrimizcha, birinchidan, suv poklik, ozodalik, soflik ramzi. Insonlarga faqat yaxshilik, hayotbaxsh etadigan mo'jiza hisoblanadi. Demak, yomon tushni o'ziga qabul qilib olib insonlarni gumon, shubha, noxushliklardan qutqazadi. Ikkinchidan, tush ko'rgan kishini o'icha "tozalaydi", ruhiy madad beradi, yomon fikr-mulohazalardan saqlaydi. Uchinchidan suvdagi ijobiy kuch-quvvatdan maqsadga muvofiq foydalanish yomon, salbiy kuchlarga yomon tushni aytib suvga oqizib yuborishdir. Darvoqe, suvda ijobiy va salbiy kuchlar musbat va manfiydir. Buni uncha-buncha odam payqay olmaydi. Siru-sinoatlar ko'p. Ko'p eshitganmiz: falonchi kanal bo'yida o'ltirgan ekan, suvga qulab tushib oqib ketibdi, "Suv oladi", "Suv olg'aydi", "Suv sehrlab olib o'ziga tortib ketadi", "Suv parisi

chaqiradi”, “Suv qizi aqlingni oladi”, “Suv boshida yotma, dunyodan armonli kechma”, “Suv siringni oladi” kabi. Yana suv haqida shunday naqlar bor: “Suv keldi – nur keldi”, “Suv bor joyda – hayot bor”, “Suvdan soʻz , beradi” kabi hayotiy, xayoliy fantastic iboralarning mantiq-mazmunlarga boy ekanini koʻramiz. Demak, “Tushingni suvga ayt” iborasini koʻchma majoziy maʼnosi (behuda gap soʻz qilib kishinig vaqti va aqlini oʻgʻirlayotgan kishiga tanbeh yoki lutf qilish), bilan bir qatorda, hayotiy (tushni suv oqizib ketadi, undan asorat qilmay kishi yengillashadi)

III BOB. IRIM-SIRIMLARDAGI TARBIYAVIY ISHONCH-EʼTIQODLAR

Ixlosmandlik ham koʻpgina milliy urf-odatlarining mohiyatini tashkil etadi. Jumladan, insonga, doʻstga, keksalarga, ustoz-murabbiyga , mehmonga, merosga hurmat-ehtirom xalqimizning eng yaxshi xislatlaridir. Ixlos, inson qalbining nodir bisoti, u insonning eng qimmatli tuygʻusi, vijdoni sharafi, imoni, lafzidir. Yaxshilikka ixlos qoʻysang yomonlikdan halos boʻlasan, deyishadi donolar.

Insonga ixlos avvalo salom berishdan boshlanadi. Salom dilni dilga ulaydigan mehr koʻprigi, mehr-oqibat va odob-axloqli qiladigan kalomi sharif. Odam odamni koʻrishi bilan “Assalomu Alaykum” deb xitob qiladi. Bu bilan odam boshqalarga tinchlik, osoyishtalik, salomatlik tilayotganini bildiradi. Shundan soʻnggina dilga mehr, yuzga tabassum yuguradi. Salom alikdan soʻng odamlar oʻrtasidagi “begonalik” pardasi koʻtarilib, hol-ahvol soʻrashga yoʻl ochiladi. Keksalar bolalarga yoshlikdan salom berishni oʻrgatadilar. Yaxshi oilada tarbiya koʻrgan bolalar qoʻlini koʻksiga qoʻyib salomlashishgan. Salom-alik insoniy munsabatlar barometri. Agar odamlar bir-biriga ixlos qoʻysa, doʻst boʻlsa samimiy sogʻinch bilan koʻrishadi, aksincha, odamlar orasida sariqchaqalik, gina-kudrat oʻtgan boʻlsa qoʻl uchidagina koʻrishadilar yoki til uchida salom-alik qilishadi, baʼzan hatto salomlashishmaydi ham. Inson ruhiy kechinmalarining tarozisi boʻlmish salom-alik sehrli kuchga ega boʻlgan ekan. Afsonalarda aytilishicha oʻtgan zamonda ov qilib yurgan bir yigit toʻsatdan bahaybat, dahshatli devga dush kelib qoladi. Shoshganidan unga “assalomu-alayku” deb yuboradi. Shunda haligi dev sehranib, yuragi yumshab, “Haq salomin boʻlmaganda ikki yamlab, bir yutar edim” degan ekan. Demak, salom berish qarz, insoniy burch. Salom berish til, din, yosh va katta kichikni tanlamaydi, u hamma uchun barobar. Biroq keying paytlarda ayrim yoshlar salom berish kabi umumbashariy qadriyatlarni ham mensimaydilar. Holbuki, odamgarchilik, insoniylik kabi tuygʻularning asl mohiyati ana shundan boshlanadi. Odamni hayvondan ajratadigan belgilardan biri – oʻzaro salomlashishdir. Insonga mehr qoʻyish – ixlosmandlikning yuksak ifodasidir. Biron odamni

yomon ko'rish oson, lekin unga mehr qo'yish qiyin. Mehr yo'q joyda shafqat ham bo'lmaydi. Odamlarning bir-biriga mehr qo'yishi uchun, uning diliga yo'l topa bilisi kerak. Kunlardan bir kun, jahongashta sayyohdan bir donishmand – suncha jahon kezasan, umringda biron bir g'aribning ko'nglini olganmisan? – deb so'rabdi. Shunda sayyoh: odamlar ko'nglini kezoilmaganim uchun jahon kezib yuribman, - degan ekan. Ha, odamlarga rahm-shafqatli bo'lish uchun, avvalo insonparvar bo'lish kerak. Umar Xayyom aytganidek:

Bir g'arib ko'nglini qilolsang shod,
Yaxshidir yer yuzin qilgandan obod.

Mehr ham bebaho inju, uni hech qanday moddiy boylik bilan almashtirib bo'lmaydi. Mehrga faqat mehr bilan javob berish mumkin, xalos. Odam birovga ixlos qo'yish uchun u kishini sevish kerak. O'shandagina uning mehrini qozonish oson bo'ladi. Odamga mehr qo'yish uni hurmat qilishdan, inson mehnatini e'zozlashdan boshlanadi.

Ishonch odamlarning dil rishtalarini bog'lovchi katta kuch. Buning uchun odam boshqalarga ishonmog'i, ixlos qo'ymog'i kerak. Halollik, adolat, sof vijdonlilik, poklik, so'z bilan ish birligi – ishonchning bosh mezonidir. Ikkiyuzlamachilarga, munofiq, firibgarlarga hech kim ishonmaydi. Aldamchilik-ishonchning kushandasi. Odamlar senga ishonmas ekan, baxtning yo'qolgani shu. A. Navoiyga odamlar chin qalbdan ishonardi. Uning baxti ham, taxti ham, buyukligi ham shunda edi. Omma bilan doim aloqada bo'lish, ularning talab-ehtiyojlarini hisobga olish, xastalarga, keksalarga, nogironlarga yordam va tasalli berish, marosim va malakalarga qatnashish, umuman, odamlar mehrini qozonib yashash – ishonchning muhim shartidir.

Odamlarning bir-biriga ixlos qo'yishi uchun avvalo ijtimoiy jihatdan tenglik zarur, hokim va tobe, boy va kambag'al o'rtasida tenglik ham, do'stlik ham, o'zaro ixlos, ishoncha ham bo'lmaydi. Mutaffakkirlar tengliknin ayrim shaxslarning jismoniy va ruhiy jihatdan teng bo'lishi ma'nosida emas, balki hamma vaqt ijtimoiy tenglik ma'nosida tushunganlar.

Odamlarning bir-biriga ixlos qo'yishi uchun adolat, haqiqat bo'lmog'I kerak. Haqiqatga, adolatga intilish har bir pok insonga xos xususiyatdir. Aldamchi yolg'onchilarga hech kim ixlos qo'ymaydi. Shu jihatdan buyuk donishmand Beruniyning quyidagi falsafiy xulosalari judayam ibratlidir: “Haqiqatni bilish uchun o'z ruhingni ko'pchilik kishilarni yo'ldan ozdiradigan (yomon) xususiyatlardan, odamni haqiqat oldda ko'r qilib qo'yuvchi sabablardan havas raqobat, hirsga bo'ysunish, hokimlik uchun kurash va shu kabilardan tozalab olishing lozim. ” Xullas, yuz yolg'ondan bir chin afzal. Haqiqat kuchda emas, balki, aksincha, kuch haqiqatda. Haqiqatga ixlos qo'yish qalbi pok kishilarning fazilatidir.

El ichida “qaytar dunyo” degan gap bor. Bu hikmat katta ijtimoiy ma’noga ega. Odam el-yurtiga qancha yaxshilik qilsa, u ham o’z dilbandiga shuncha himmat ko’rsatadi. O’zgalarning baxti uchun kurashgan odamning o’zi ham shuncha baxt egasi bo’ladi. Odamga sog’lik kerak bo’lsa, shifokkorga ixlos qo’yadi. “Ixlos qilsang darddan xalos bo’lasan” degan gap shundan qolgan. Bilim olishga orzumand bo’lgan shogird ustoziga ixlos qiladi. Nodonga ustoz ham, o’qituvchi ham kerak emas. Zar qadrini zargar biladi. Arpa ekkan dehqon hech qachon bug’doy o’rmagan.

Ixlos va e’tiqod –o’zaro bog’liq va bir-birini taqazo qiladi.

E’tiqod-odamning tanlagan yo’li, g’oyasi. Kimki shu yo’ldan kurashsa, o’z g’oyasiga sodiq bo’lsa, demak, u e’tiqodli odam. Bu yerda gap milliy an’analar ustida borayotir. E’tiqod o’z xalqiga va uning yaxshi an’analariga ixlos qo’yishdir.

E’tiqod iborasi or-nomus, shon-shuhrat, vijdon, imon kabi axloqiy-psixologik tushunchalarni ham ifodalaydi. Xalqimiz o’tmishidan bunga misollar keltirish mumkin: Xalq qahramonlari – Shiroq (miloddan oldingi VI asr) doro boshchiligidagi bosqinchi galalarga qarshi, Spitamen (miloddan oldingi III asr) Iskandar lashkarlariga qarshi, Muqanna (VIII asr) arab iste’lochilariga qarshi, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi (XIII asr) mo’g’ul bosqinchilariga, Boboi Aliboy (XIX asr) rus mustamlakachilariga qarshi, Shuningdek Fayzulla Xo’jayev va Akmal Ikromovlar xalqimiz ozodligi yo’lida kurash olib borganlar. Yurtimiz ozodligi, or-nomus va inson qadr-qimmatini yo’lida qurbon bo’lgan bu fidoyi ajdodlarimiz chinakam vijdonli va e’tiqodli odamlar bo’lishgan. Bu sharaflilarda ular jonlarini fido etishdi, o’z xalqiga sodiqlik, ixlos va e’tiqod ularni o’zlari tanlagan yo’ldan qaytara olmadi. Oliyhimmatlilik, vatanparvarlik, mardlik – e’tiqodli kishilarning yuksak fazilatlaridir. Aksincha, ikkiyuzlamachi, qo’rqqoq, betayin kishilarni xalqimiz e’tiqodsiz, imonsiz odamlar deydi. Binobarin, e’tiqod, so’z va ish birligini, bilim va amaliy faoliyat mutanosibligini, huquq va burch uyg’unligini, vada va vafo birligini taqazo qiladi. Milliy an’analariga amal qilish uchun 3 unisorni o’z ichiga oladi: 1) bilim, 2) e’tiqod, 3) faoliyat. Bilim til va tafakkur bilan, e’tiqod – qalb va hissiyot bilan, faoliyat – ijtimoiy mehnat bilan bog’liq. Biroq, bilimli va mehnatsevar kishida mustahkam e’tiqod bo’lmasligi mumkin. Zero e’tiqod faqat tarbiya tufayli qaror topadi. Bobokalonlarimiz yoshlarni hamisha lafzi halollik, rostgo’ylik, insonparvarlik, diyonat va mehr-shafqat ruhida tarbiyalashga odatlanganlar. Ota-onalar o’z boalalariga ovqatdan oldin va keyin qo’lingni yuv, toza va ozoda bo’l, o’g’rilik qilma, birovning haqiga ko’z olaytirma, oqar suvga tuflama, qushni o’ldirma, niholni sindirma deb nasihat qiladi.

Uvol-savob, halol-harom kabi tushunchalarni ham bola yoshligidanoq eshitgan: nonni, suvni, yerni e’zozlash savob, tuzni, sutni to’kish uvol. Mehnatning noni – halol, o’g’rilik qilib topilgan narsa harom. Bularning hammasi ma’naviy hayotimizning ajralmas qismi. Qasam

ham e'tiqodni tarbiyalashning muhim omili. Kishilar biror narsani bajarishga ahd qilib, o'rtaga non, keyinroq Qur'on qo'yib, guvohlar vositaligida tantanali tarzda qasamyod qilganlar, ont ichganlar. Bu bilan o'zlarining vadalariga vafodorekanliklarini, imoni pokligini amalda isbot qilganlar. Hozir ham prezidentlar, askarlar, shifokorlar qasamyodi mavjud.

Xalqimizning bola tarbiyasi bilan bog'liq hammaga manzur bo'ladigan ko'pgina yaxshi odatlari mavjud. Demak, bola tarbiyasi sohasida, illy urf-odatlarni qunt bilan o'rganish va uni hayotga tadbiq etish juda zarur. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganidek, kattalarning na'munaviy xulqi, mehnat va oilaviy an'analari, xarakter va kayfiyatlari yosh avlodning hayot haqidagi qarashlari va g'oyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bola taqlidchan bo'ladi. Tarbiya ishida hamma narsa tarbiyachining shaxsiga. Ichki dunyosi va tashqi qiyofasiga asoslanishi lozim. Murabbiyning shaxsiy hislatlari tarbiyaga kuchli g'oyaviy-estetik ta'sir etadi. Tarbiyachining bolaga ta'siri o'rnini hech narsa bosa olmaydi: xarakterni faqat xarakter, e'tiqodni faqat e'tiqod tarbiyalaydi xalos Xalqning olma daraxtining mevasi shu daraxtdan nariga borib tushmaydi, deb gapirishi bejiz emas. Xullas, farzandlarimizni xalqimizning ilg'or an'analari ruhida ajdodlar vorisi va qayta qurish davrining vatanparvari qilib tarbiyalash yurtimiz istiqboli uchun qayg'uruvchi har bir kishining sharafli burchidir.

Milliy an'analar odamda ertangi kunga ishonch, kelajakka ixlos tuyg'ularini qaror toptiradi. Zotan odam bolasi katta orzu-umidlar bilan yashaydi. "Tuyaga minib uzoqni ko'zla", "Toqqa chiqqan cho'qqini ko'zlar"-deyishgan mashoyiqlar. Biroq inson o'tmishining ijodi va kelajakning orzusi bilan yashashi kerak. Modomiki, rivojlanayotgan har bir narsada o'tmishning izlari, hozirgi hayotimiz negizlari, kelajakning kurtaklari mavjud ekan, demak o'tmishning eng yaxshi tomonlarini, umujmbashariy, milliy qadriyatlarni avaylab-asrab kelajakka ko'chirishimiz lozim. Kelajak uchun yashaydigan odam doimo kelajakka intiladi, u kelajakni sevadi, kelajak uchun kurashadi. Chunki, kelajakning nechog'lik go'zal va porloq bo'lishi insonning bugungi faoliyatiga bog'liq. Shu bois inson umid bilan farzand tarbiyalaydi, umid bilan dehqon urug' qadaydi, umid bilan bog'bon nihol ekadi va hokazolar. "Noumid shayton" degan xalq maqoli bor. Inson orzularsiz yashamaydi. Orzu-umidsiz odam bamisoli qonunbuzar-jinoyatchilar, axloqsiz-bezorilaro'g'ri va poraxo'rlar, insoniy ideallardan mahrum bo'lgan nochor kimsalarga teng. Orzu-hayotdan qoniqish, unga ixlos qo'yishga undaydi. Insonparvarlik tantana qilgan nurli kelajak sari ishonch bilan olg'a harakat qilish – bizning azaliy orzuyimiz hisoblanadi. Orzu-umid hali amalga oshmagan imkoniyat olijanob maqsaddir. Uni ro'yobga chiqarish uchun mehnat qilish lozim. Qadimgi faylasuflar "ulug' maqsad ulug' kuchni tug'diradi" deb bejiz aytishmagan. Insoniy maqsad – oily baxt saodatga erishuvni o'ziga g'oya va oily maqsad qilib olish kerak", degan edi Farobiy. Odam o'z irodasi bilan, ongli faoliyati bilan imkoniyatni voqelikka aylantiradi va murod maqsadiga yetadi. Bunga xalqimiz tarixidan ko'plab ajoyib misollar

keltirishimiz mumkin. Mashhur matematik va asronom al-Xorazmiy (780-850) fan tarixida birinchi bor aljabr, algoritm kabi olamshumul ta'limotlarga asos soldi. Algoritm atamasi ham asli uning nomidan olingan. U 209 tog'ning geografik tafsilotini ishlab chiqdi. "Sharq Aristoteli" degan ulug' nomga sazovor bo'lgan qomusiy oolim Faroiy (873-950) oy tutilishing sababini aniqlashga urindi. Abu Ali ibn Sino (970-1037) ning "Tib qonunlari" to XVIII asrgacha Ovrupada tibbiyotning asosiy qo'llanmasi sifatida foydalanildi. Abu Rayhon Beruniy (973-1048) N. Kopernikdan 500 yil oldin Yerning quyosh atrofidan aylanishi haqidagi nazariyani o'rtaga tashladi. A. Navoiy o'zining hayotbaxsh asarlari bilan turk tilning noyob imkoniyatlarini ochib berdi. XV asrning buyuk astronomi Ulug'bek (1394-1449)ning mashhur rasadxonasini butun jahon biladi. U 1018 yulduzning harakat qonunlarini o'rgandi.

Xullas, inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga qanday qilib erishish kerakligini bobokalonlarimizdan o'rganishi darkor. Umid tushunchasi inson amaliy faoliyatida muhim rol o'ynovchi buyuk harakatlantiruvchi kuchdir. El ichida "umid o'rga, umidsizlik go'rga", "umid qilgan murodga yetadi" degan hikmatlar bor. Naql qilishlaricha bir sayyoh bepoyon cho'li biyobonda tinmay yo'l bosar ekan. Kun jazirama issiq. Osmonda parvoz qilib yurgan burgut bu odamni kuzatibdi. Jonivor sayyoh orqasidagi ko'zachada suvi borligini sezibdi. Haddan tashqari chanqagan va holdan toygan sayyohga rahmi kelib, unga: - E odam blasi orqangda suving bor tezroq ichib ol, bo'lmasa nobud bo'lasan, debdi. Sayyoh: - ha, burgut, men ko'zachamda suv borligini bilaman, lekin uni hozir ichsam manzilimga yetib borolmayman. Suv men uchun katta umid, kuch quvvat va shu tufayli "Bog'I eramga" yetib boraman, maqsadimga erishaman, - debdi. Darhaqiqat, umid osamning yo'ldoshi. Insonda umid bo'lmasa edi, hayot lazzati ham yo'qolardi. Ulug' odamlar doimo katta umid-orzular bilan yashagan. "Umid o'limdan ham kuchli" degan naql ham bor. Rivoyat qilishlaricha bir 90 yoshar chol tog'dan bir orqa o'tin ko'tarib kelayotib, charchabdi. Dam olishga o'tirib, hayot tashvishlaridan norozi bo'lib: - shu ham hayot bo'ldimi, agar azroil kelsa jonimdan ham kechar edim, - debdi o'ziga-o'zi. Shunda birdan azroil hozir bo'lib, cholga: -Men sizning joninggizni olgani keldim,-debdi. E uka men hazillashgan edim, shunga ham ishondinglarmi, o'tinimni ko'tarishib yubor, tez bormasam kampirim urishadi,-deb uyiga jo'nab ketgan ekan.

"Orzuning qanoti bor" deyishadi. Orzu qalbning ko'zgusi, u odamning istiqbolini aks ettiradi. Orzuning ro'yobga chiqishi odamga qanchalik quvonch bag'ishlaydi. "Orzuga ayb yo'q". Orzu hamisha yangilikni taqazo qiladi. Hamma narsa tinimsiz o'zgarish natijasida rivojlanadi. Binobarin, o'g'il otadan, shogird ustozdan, soldat generaldan o'zmasa, jamiyatda o'sish, taraqqiyot bo'lmas edi.

"Intilganga tole yor", "Izlagan Makkani topar" deyioladi xalq maqollarida. Istiqlol tufayli shunday sharoit vujudga keldiki, bunda har bir shax ezgu niyatlariga, albatta, erishadi.

Biroq, olma pish, og'zimga tush, deb kutib o'tirish gumrohlikdir. Orzuning amalga oshishi uchun turmush qiyinchiliklarini yengish, ziddiyatlarni bartaraf qilish zarur. Yashash kurash demakdir. "Yotib qolguncha otib qol" deb bejiz aytilmagan. Inson tug'ilgandan to umrining oxirigacha yashash va yaratish uchun kurashadi. Bolalik, o'smirlik, yigitlik davrlari, qalbi qaynoq yoshlik yillari, jismoniy va aqliy kamolot, oilali bo'lish. Shaxs taraqqiyotining turli bosqichlari – murakkab va ziddiyatli jarayon. Odam o'z faoliyati davomida goh balandga chiqadi, goh pastga tushadi, muvaffaqiyatidan quvonadi, omadsizlikdan esa qayg'uradi. Xullas, hayot charxpalak, omad bilan omadsizlik uning ikki parragi. Oyning o'n beshiyorug', o'n beshi qorong'I, Xullas, yoshlarni insonga, elu-xalqqa, hayotga ixlosmandlik ruhida tarbiyalashda beqiyos saboq bo'lib xizmat qiladigan milliy an'analarimizni qadrlaylik.

Do'stga ixlos-xalqimizning eng qadrlil an'analaridan biri hisoblanadi. Jumladan, Alpomish bilan Qorajon orasidagi do'stlik o'zbeklar uchun birodarlik ramzidir. Hozir ham ikki do'st quchoqlashib ko'rishganda o'zlarini Alpomish bilan Qorajonga qiyoslaydilar. Shuningdek bobomiz Alisher Navoiy o'z asarlarida Farhod va Shopur obrazlari orqali do'stlikni insoniy munosabatlarning gultoji deb ta'riflaydi.

Ota-bobolarimizning fikricha do'stlar uch xil bo'ladi: a) jon oshnasi; b) mol oshnasi; d) xotin oshnasi. Bu qoidalarning to'g'riligini hayot tajribasi ko'p marta isbotlagan. Jon oshnasi deganda qiyomatli (umr boqiy) oshnalar nazarda tutiladi. Bunday oshnolarni "To'n yopishgan do'stlar" deyishadi. Har ikki tomonning ham ota-onalari farzandining do'stini ham o'g'limiz deyishadi. Masalan, Qorajon do'sti Alpomish haqida enasiga :

Kelgan mehmon sening o'g'ling bo'ladi,
Do'stning mehri juda issiq keladi,

-deb uqtiradi.

Qadimda do'stlashishga had qilganlar chimchilog'ini kesishib, bir-biriga qonini almashtirishgan. Ota-ona xazina, aka-uka tayanch, do'st ham hazina, ham tayanch degan hikmat bor. Qishloq aholisi orasida hozirgacha "ota oshna" degan ibora mavjud. Buning ma'nosi shuki, bir vaqtlar bobosi bilan bobosi, otasi bilan otasi, o'g'li bilan o'g'li oshna bo'lishgan. Do'stlar yaxshi kunda ham, yomon kunda ham, to'yda ham, marakada ham doimo sherik bo'lgan. "Do'stingni boshingga mushkul ish tushganda bilasan" deydi oqsoqollar. Buyuk alloma Abdurahmon Sa'diy aytgan edi:

Do'st dema gar nozi-ne'mat ustida,
Ursa lof: Do'stimsan, aziz, mehribon.

Do'st udir, do'stiga cho'zsa qo'lin-

Do'st bo'lganida nochor notovon.

Chin do'st yigitning katta baxti. Qush qanoti bilan, odam do'sti bilan barhayot. Samimiy do'stlik – odamning qo'lga kiritgan eng bebaho boyligi sanaladi. Rostdan ham haqiqiy do'st tanlash juda qiyin. “Do'sting bilan bir pud tuz ye” deyishdan maqsad oshna tutinish uchun uni atroflicha sina, sirdosh bo'l, xarakter va mijozini o'rgan demoqchi. Xalq maqollarida ham “Sinamagan otning sirtidan o'tma” deyiladi. Kim do'st izlamasa, o'ziga dushman, do'stlik qadriyatini hech narsa bilan o'lchash mumkin emas. Qadim zamonda yigitning do'sti bo'lmasa, uni odam qatoriga, to'rtov oraga qo'shmagan. Zotan, daraxt ildizi bilan, odam do'sti bilan kuchli. Do'stlik haqida shunday rivoyat bor. Biro dam do'stinikiga yuz tanga qarz so'rab keldi. Oshnasi darhol chiqarib beradi va u uyga qaytib kelib yig'lay boshlaydi. Bu voqeaning sababini bilmagan xotini: - Ha, nima balo ko'p pul berib yubordingizmi, bahona qilib pulim yo'q demaysizmi? – deydi eriga. – yo'q, unday emas, do'stimning ahvolidan xabar olmapman, u so'ramasdan pul berishim kerak edi, men g'aflatda qoldim, oshnamning oldida gunohkorligimdan yig'layotirman,-degan ekan.

Xalqimiz biron bir shaxsiy manfaatini ko'zlab do'st tutingan socta do'stlarni mol oshnasi deydi. Bundaylar biror mansabga chiqib olsalar, yoki boyib ketishsa avvalgi qadrdonlarini darhol unitadilar. Rivoyat qilishlaricha falakning gardishi bilan shahzoda va dehqon yigit do'stlashibti. Shahzoda oshnasiga: - Agar men podshoh bo'lsam seni o'zimga vazir qilib olaman deb va'da beribdi. Kunlar o'tib,shahzoda podshoh bo'libdi. Bu voqeadan xabar topgan dehqon yigit oshnasinikiga shaharga qidirib keladi. Podsoh u bilan gaplashishni ham istamaydi. O'sha kecha shohning og'zi qiyshayib, ko'zi olarib qolibdi. Tabiblar uni sog'aytirishning yo'lini yopolmabdi. Oxiri bir donishmand shohga: - do'stingga bergan va'dangni bajarmabsan, oqibatda xastalikka duchor bo'libsan, debdi. Shundan so'ng jo'rsi dehqon yigitni vazirlikka tayinlabdi. Keyin shoh sog'ayib, do'stlar murod-maqsadiga yetibdi. Albatta, bu afsona tagida katta ijtimoiy ma'no bor. Shunday odamlar borki biror tanish-bilishi yuqori lavozimga ko'tarilsa, yolg'ondakamiga “do'st” bo'lib, oladi-da, amaldan tushgandan so'ng uni umuman tanimaydi. Tengsizlik, manmanlik, xudbimlik, do'stlikka yot xislatdir. Do'stlik-sadoqatsiz, ilm-xosiyatsiz, sevgi-vafosiz, boylik-sahovatsiz bo'lsa ularning baridan voz kech degan donolar. Haqiqiy o'rtoqlar bir mayiz topishsa ikkiga bo'lib yeganlar. Biroq gul tikansiz bo'lmaganidek, odam bolasi ham benuqson emas. Chin oshnolar o'rtasida haqiqiy oshkoralik amal qiladi, ular bir-birining xato va kamchiliklarini ro'y-rost yuziga aytib, ularni tuzatishga ko'maklashadilar. “Do'st achitib, dushman kuldirib gapiradi” degan hikmat shundan qolgan. Binobarin, do'stlik insonga ixlos qo'yishning yorqin ifodasi bo'lib, an'anaviy

qadriyatlarni ulug'lab, hayotimizni maroqli va hushchaqchaq qiladi. Keksalarga, ustozlarga ixlos qo'yish ham xalqimizning eng yaxshi fazilatlaridan biri. Xalqimiz udumiga ko'ra yoshlar qariyalarga birinchi bo'lib salom beradi, o'tirganda joy va yurganda yo'l bo'shatadilar. Keksalar oldidan kesib o'tish yoki ular oldida baland tovush chiqarib gaplashish ayb sanaladi. Hatto ot minib kelayotgan yigit keksalar o'tirgan guzarga yetganda, ptdan tushib salomlashib o'tadi. Bularning hammasi keksalarga zo'r hurmat, ehtirom va ixlosmandlik ramzi. Aslida xalq pedagogikasining o'zi ham keksalar tajribasiga, asrlar bo'yi shakllangan an'analarga asoslangan. Binobarin, tarbiya-keksa avlod tajribasini o'zlashtirish, ajdodlar e'tiqodlarini singdirishdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, ajdodlar an'analari ruhida tarbiyalash yoshlarni yashashga o'rgatish demakdir. Chunki oqsoqollar katta hayot tajribasiga ega, ular eng ilg'or an'alarini umuminsoniy oddiy axloq-odob qoidalarini o'zlariga mujassamlashtirgan. Yigitlar yer haydash, ekin-tekin ishlarini, hunarmandchilik sirlarini dastlab ota-bobolaridan, qizlar esa uy yig'ishtirish, hovli supirish, idish tovoq yuvish, taom tayyorlash, xamir qilish, non yopish, sigir sog'ish, qurt boqish, kashta tikish, bola tarbiyalash yo'llarini esa tabarruk onaxonlaridan o'rganadai. Bolalarertak, matal, masal, latifa, dostonlarni ham ilk bor bobo-yu momolardan eshitadilar. Keksalarning har bir kalimasi yoshlar uchun oltindan ham qimmatli, ularning hayot tajribasi yoshlar uchun tarbiya maktabi. Faylasuflar ta'biricha yoshlar aytgan gaplar, garchand mazmunli bo'lsa-da, hayotdam ko'p narsa o'rganib kamolga yetgan keksalar fikrining o'rnini bosolmaydi. Xalq maqollarida "Qaring bor, barakang bor", "Qari bilganni pari bilmas", "Otalar so'zi aqlning ko'zi" deb bejiz aytilmagan. Keksalardan hayot sabog'ini, xalq an'alarini, urf-odatlarini o'rganish yoshlarning vazifasi.

Odatda odam keksayganda osh-non, kiyim-kechakdan ko'ra, ko'pincha e'tibor, mehr-shafqat, ma'naviy va ruhiy himoyaga muhtoj bo'larkan. Umr bo'yi jo'shqin hayot girdobida qaynab yurgan odamlar qariganda jamiyat va shaxs e'tiboridan chetga chiqib o'zlarini go'yo yakkalanib qolganday his etadilar. Ularning faoliyatida qandaydir umidsizlik kayfiyatlari tug'iladi. Bunday sharoitda ikki og'iz shirin so'z keksalar uchun katta ziyofatdan ham afzal. Buning ustiga kishi qariganda "ko''zdan nur, beldan quvvat ketadi". "Oltmishingda otga irg'ib minolmassan, yetmishingda yer tayanmay turolmassan" deb qariyalarning o'zlari e'tirof etishadi. Bas, shunday ekan, ular yosh avloddan ko'proq iltifot, yordam, hurmat-izzat kutishga haqli.

E'tirof etish lozimki, keyingi yilda kishilar orasida, o'zaro qadr-qimmat yo'qoldi, jamiyatga ma'naviy qahatchilik, insoniy qadr-qimmatni mensimaslik, loqaydlik va mas'uliyatsizlik kabi salbiy holatlar ro'y bermoqda. Holbuki, inson qadr-qimmatini har narsadan tabarruk va azizroqdir. Shunday ekan, yoshlarga fizika, ximiya, astronomiya, matematika kabi fanlarni o'rganish bilan birga, ularga xalq an'alarining tarbiyaviy ahamiyatini, insoniylik saboqlarini ham o'rgatish zarur.

Xalq an'analaridan bir- ustoz va murabbiylarga ixlosmandlikdir. Keksalar ustoz otadan ham ulug' deydilar. Zero ota-ona bolaning jismoniy qiyofasini vujudga keltirishsa, ustoz uning insoniy qiyofasini shakllantiradi. Shuning uchun ham ota mehridan ustoz jabri afzal deyiladi. O'zbek xalqining buyuk shoiri A. Navoiy o'z ustozini Jomiyning nihoyatda hurmat qilardi. Hatto, u vazirlik lavozimidan ketmoqchi bo'lganida ham, ustozidan maslahat so'ragan. Shuningdek, o'z asarlarini yozishdan avval ustozini bilan maslahatlashgan. Hazratning o'zi e'tirof etishicha, falsafaning ko'p sirlarini, saxiylik va kamtarlik kabi hislatlarni ustozidan o'rgangan. Ular hamisha bir biriga madadkor va ixlosmand edilar. Abdurahmon Jomiy ham o'z navbatida Navoiyning behad hurmat qilardi, Navoiy qiyofasida donishmand mutafakkir, buyuk shoir timsolini ko'rardi. Navoiyning o'z ustoziga nisbatan ixlosi nihoyatda baland bo'lganligini quyidagi hikoyadan ham bilsa bo'ladi: -Bir kuni Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaro Hirot ko'chasida ketayotgan edi. Navoi to'satdan otidan tushib ariq bo'yida o'ynab o'ltirgan bolaga tavoze bilan salom beradi va yana otiga minib yo'lida davom etadi. Bundan hayron bo'lgan Husayn Boyqaro: -Ajabo, Alisher! Nega katta boshingiz bilan ona suti hali og'zidan ketmagan go'dakka ta'zim ila salom berdingiz, buning boisi nima? – deb so'radi. U bola, mavlono Abdurahmon Jomiyning nevaralari bo'ladi, ustozga hurmatim zo'rligidan u bolaga salom izhor etdim,- deb javob qildi Navoiy.

1492-yilda ulug' ustozini Jomiyning dunyodan o'tishi Navoiy uchun og'ir yo'qotish bo'ldi. U ustoziga bag'ishlab motam marsiyasi yozdi. Uni o'qigan kishining yuragi larzaga keladi. O'zi bosh bo'lib ustozining barcha marosimlarini o'tkazdi, mozoriga gumbaz qurdiradi. Ustozini xotirasini eslab bir yil aza tutdi. O'z navbatida hazrat Navoiyning ham o'z shogirdlari – Sultonmurod va Arslonqulga ixlosi zo'r edi. Bog'bon mehr bilan niholni parvarishlab o'stirgan kabi Navoiy ham ularni qalb qo'ri va mehr bilan tarbiyaladi. Buyuk alloma shogirdlariga qarata: - Ilm daraxtini yaxshi parvarish etib, yurt tuprog'iga chuqur tomir yoydirmoqlaringiz va undan mo'l hosil olmoqlaringiz kerak,-deyar edi. O'z bisotidagi barcha ilm xazinalarini shogirdlari bilan baham ko'rishga otlangan Navoiy:

Ilmni asrabon netgumdir oxir,

Olibon tuproqqa ketgumdir oxir,- deb yozgan edi.

Mehmondo'stlik – xalqimizning eng yaxshi odatlaridan biri, jahonning turli burchaklaridan kelgan chet ellik sayyohlar ham mehmondo'stligimizga tan berishadilar. Xalqimizning “mehmon otangdan ulug'”, “Mehmon oz o'tirar, ko'p ko'rar” degna ibratli gaplari bor. Shunga ko'ra har bir mezbon mehmon kutishga hozirlik ko'rar ekan eshik-hovlilar supiriladi, uy-joy saramjon sarishta qilinadi, uy egalari yuvinib-taranib, toza va ozoda kiyinadi, chiroyli qilib dasturxon bezatiladi, mezbon ochiq chehra bilan mehmon istiqboliga peshvoz

chiqadi, agar mehmon yaqin kishisi bo'lsa, quchoqlashib korishadi. O'z navbatida mehmon ham toza va ozoda kiyinib borishga harakat qiladi. "Mehmonning kiyimiga qarab kuzatadi" degan naql bejiz aytilmagan. Odatda har bir oilada did bilan bezatilgan mehmonxonasi bo'ladi. Mehmon uchun ohori to'kilmagan bir necha ko'rpa, ko'rpacha, bolishlar, idish-tovoqlar tayyorlab qo'yiladi. Xoh qari, xoh yosh bo'lishidan qat'iy nazar mehmonga to'rdan joy beriladi. Mehmon bilan bog'liq milliy an'analardan yana biri – aziz mehmonga sarpo kiydirish odatidir. Bu bilan mezbob mehmonga o'zining eng samimiy qalb tuyg'ularini izhor etadi. O'z navbatida ko'pchilik mehmonlar ham quruq qo'l bilan kelmaydilar. Shuning uchun bo'lsa kerak, "Kulchali mehmon, siymali mehmon", "Bor tovog'im, kel tovog'im, bormasang kelmasang o'rtada sin tovog'im" degan maqollar to'qilgan. Avvallari biror kishi musofir bo'lib, choyxonaga kelib qolgan taqdirda mahalliy aholi uni uyga taklif qilish odatlari bo'lgan. Bundan ham ziyod olijanoblilik, himmat, insonparvarlik bo'ladimi? Xalqimiz chet ellardan qidirib kelgan hurmatli mehmonga ham qo'lidan kelganicha mehmondo'stlik qiladi, do'stlarga to'n va do'ppi olib berishadi va kiydirishadi.

Afsuski, xalq an'alariga, jumladan mehmondo'stlik odatlarimizga hamma ham beg'araz qalb bilan, ochiq ko'z bilan qaramayotir. Masalan, Sobiq sovet davrida xalq deputati bo'lib ishlagan R. Medvedov (millati rus) o'zbeklar mehmondorchiligini pora berishning bir turi deb atadi. Bunday malomat toshlarini otuvchilarga qarata O'zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripov o'zining bir she'rida:

Muruvvat neligin bilmas mehmonim
Ko'zi och, yeb to'yimas, beqo'nim gadoy,
Pora bo'libdimi bir burda nonim,
Pora bo'libdimi bir payola choy?
O, xalqim, ochiq qo'l xatomsan azal,
Atoyi xudo de mayli mehmonni,
Lekin nonko'rlarni uchratgan mahal

Og'ziga tiq endi tipratikonni, -deya juda to'g'ri javob berdi. Daraxt borki, unga qush qo'nadi, uy borki, unga mehmon keladi. Ha, o'zbek xalqi mehnatsevar va zahmatkash xalq, mehnatni sevgan kishi esa mehmondo'st bo'ladi. Meros xalq o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi muhim xalqa. Avlod va ajdod munosabatlarining uzluksiz zanjiri ana shu xalqalardan tarkib topgan. Agar avlodlar xalqasi uzilsa jamiyat vayron bo'ladi. O'tmishni mensaimaslik ma'naviy qashshoqlikka sabb bo'ladi. Har bir xalq o'z tarixiga, tiliga, yurtiga, milliy madaniyatiga, urf-odat va an'alariga ega. Ajdodlar ruhi bilan yashagan odamning zamini (poydevori) mustahkam bo'ladi. Yosh avlodlar o'z ajdodlarining tarixini bilishni istaydi. Bu esa

insonparvar, chinakam demokratik jamiyat ruhiga aynan mos keladi. Zotan, ajdodlar qoldirgan boy va qimmatli milliy madaniy merosni avaylab saqlash va uniavlodlarga yetkazish – tarixiy zaruriyatdir.

O'tmishdoshlarimiz merosi kishilardamilliy ong, milliy g'urur tuyg'usini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Birgina, dafn marosimi bilan bog'liq bo'lgan 80 dan ortiq bo'lgan xalq udumlari mavjudligi aniqlangan bo'lib, ko'mish marosimiga qatnashish, oxirgi marta vidolashuv, ta'ziya izhor etish ana shular jumlasidandir. Qadimgi Rimlik buyuk mutafakkir va notiq Sitseron marhumni ko'mish marosimiga qatnashish – inson faoliyatining tojidir, degan edi. Mashhur ingliz olimi Djon Doni motam qo'ng'irog'I chalinayotgan ekan, u senga ham taaluqli, deb ta'kidlagan. Bu bilan tanishmi, begonami, iloji boricha dafn marosimiga ishtirok etish lozimligini uqtirgan. Bas, shunday ekan boshiga qayg'u rushgan odamlarning g'amiga sherik bo'lish, ularni yupatish yuksak insoniy burchdir. “Ta'ziya - qarz”, “To'yga bormasang ham ta'ziyaga bor” deydi xalqimiz. Yuksak insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan xalq an'analari kishilarni hamdardlik ruhida tarbiyalaydi. Uzoqdan tobut ko'tarib kelayotganlarni ko'rgan kishilar, ularning yoniga borib har tomondan yeti qadamgacha ko'tarishadi. Aytishlaricha, Usmon ota Yusupov Andijonga borayotib, ko'chada tobut ko'tarib kelayotgan odamlarga duch keladi, u kishi daarhol mashinadan tushib dafn marosimiga qatnashadi, marhum shaniga iliq gaplar aytadi, inson qadr-qimmatini ulug'lashni maslahat beradi. Marshal G. K. Yukovning ham bir necha bor hayotdan ko'z yumgan askarlar tobutini ko'targanligi, ko'mihs marosimiga shaxsan o'zi qatnashganligi ma'lum. Odam taftini odam oladi. Ayniqsa, qishloqda ta'ziyaga butun el qatnashadi. Bu sohada hamon jamoatchilik fikri kuchli. Bordi-yu noma'lum sabab bilan bionta tanish kishi dafsn marosimiga qatnashoolmay qolsa, qishloq oqsoqoli ko'pchilik oldida unga tanbeh beradi. Ta'ziya katta kichikka barobar. Bu marosimda qatnashgan kishining mansabi ham, boyligi ham surishtirilmaydi. Faqat bir narsa –odamiyligi surishtiriladi, xalos. O'zbek xalqi tarixidan ma'lumki, dafn marosimida “Fig'on”, “Nasrulloi”, “Nola” kabi motam marsiyalari mungli tarzda ijro etilgan. Surxondaryoning ba'zi qishloqlarida agar ayol sog'lom bo'lsa – qizil xasta bo'lsa – sariq, azador bo'lsa – ko'k ko'ylak kiygan. Xullas, ta'ziyaga qatnashish tiriklar uchun ham farz, ham qarz. O'zbeklar urf-odatiga ko'ra, uch kungachha qozon osilmaydi, ovqat esa qo'shnilarnikidan keltiriladi. Bu himmat, katta insoniylik ramzi. Marhumning qirqi o'tgach azadorlarning yaqin kishilari ularni uylariga taklif qiladilar, ko'ngil ovlaydilar, boshiga qayg'u tushganlar dardiga sherik bo'ladilar. To yili o'tguncha marhum xonadonidan vaqti-vaqti bilan xabarlashib turiladi. Ayniqsa, ulug' ayyom kunlari arafasida marhumning yaqin kishilari kelishib, uning xotirasini yodga oladilar.

Xalq an'anasiga ko'ra uch kungacha marhum qabri boshiga borib turiladi, har kecha mozorga chiroq yoqib qo'yishadi. Bularning hammasi marhumlar xotirasini e'zozlash an'analari

sirasiga kiradi. Marhumlar qabriga tosh qo'yish qadimdan ma'lum. Chunonchi, Urxun –Enisey yodgorliklar – qabr toshlariga bitilgan yozuvlar o'n besh asrdan buyon saqlanmoqda. Toshlarga marhumning kimligi, yashagan vaqti yozilgan. Toshdagi yozuvlardan “tangri”, “turk” degan so'zlarni, motam marsiyalarini o'qish mumkin. Qadimgi toshbitiklar hozirgi o'zbek tilining tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Keyingi yillarda nafaqat saharlarda, qishloqlarda ham marhumlar qabriga yodgorlik toshlarini qo'yish udumi tobora ommalashmoqda. Bu yaxshi odat. Biroq har narsaning ham me'yori bor. Ayrim shaxslar manmanlik qilib, yaqinlari qabriga besh-olti yuz ming so'mlik marmartoshlar qo'ymoqdalar, albatta bunday qimmatbaho yodgorliklar qo'yishga oddiy mehnatkashning qurbi yetmaydi. Manmanlik, mansabparastlik, byurokratizm bu yerda ham o'z aksinitopmoqda. Ammo shunday oilalar ham borki, ular qazo qilgan yaqinlarining shaxsiy butumlarini – hujjatlari, xatlari, kitoblari, mukofotlari, suratlarini, kiyimlarini xotira sifatida avaylab saqlaydilar yoki muzeylarga topshiradilar. Bularning hammasi avlodlar uchun o'tmishdan yodgorlik bo'lib xizmat qiladi. Ajdodlar xotirasi odamlarni jipslashtirib, an'anaviy qadriyatlarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Xalq udumiga ko'ra, odam bolasi o'zining yeti pushtini bilishi shart. Bu ham otaboblar xotirasiga hurmatning bir ko'rinishi. Haligacha keksalarda “Baxshilarning yeti pushti shoir o'tgan”, “chapog'onlik yeti otasida meros”, “Yeti pushtini bilgan er, yeti yurtning g'amini yer” kabi naqlar saqlanib qolgan. Bu an'anani tiklash vaqti keldi. Hozirgi ma'naviy madaniyatimiz darajasi shuni taqazo qiladi. O'z shajarasini, uning tarixini chuqur bilish – milliy boynalminal ongning, qolaversa, tarixiy ongning qaror topish shartidir.

Har bir joyning, harbir tumanning atoqli kishilari faoliyatini bilish ham inson xotirasiga ixlosmandlikning bir ko'rinishi bo'lib hisoblanadi. Shaxsan men o'zining yaxshi ishlari bilan nom chiqargan – Qurbon misgar, Ashirboy kulolchi, Izbosar tabib, Usta Jo'ra (temirchilik ustasi), Mamatrahim tegirmonchi, Ergash juvozchi, Hamro holvachi, Arbob novvoy, Mardonaqul baxshi, Davman polvon, Ziyoqul chopag'on kabi yurtdoshlarimizni yaxshi bilaman. Ha ular o'lkamiz tarixini yaratgan, el ichida obro'-e'tibor qozongan hurmatli odamlar edi.

Inson umri odamning yoshi bilan emas, balki qilgan yaxshi ishlari bilan o'lchanadi. Ulug' bobomiz Navoi ham “Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bilan ot” deb bashorat qilgan edi. Kunlardan bir kun podshoh jahon kezib yurgan sayyohdan: -Tila tilagingni, hammasini muhayyo qilaman, debdi manmansirab. Undan sayyoh mangu hayot, abadiy yoshlik, bitmas-tuganmas davlat, beqayg'u shodlikni so'rabdi. –Bular mening qo'limdan kelmaydi,-debdi podsho taslim bo'lib. Rostdan ham odam abadiy yashamaydi, uning ishini avlodlari davom ettiradi. “Har bir narsaning avvali ham, oxiri ham bo'ladi. Umr nihoyasiga yetib ajal kelganda, uning chorasini ko'rib bo'lmaydi. Dunyoning ishi shunaqa: Har bir g'am orqasidan shodlik, har bir shodlik

orqasidan kulfat keladi“. Hayot zanjiri butunlay uzulmaydi, vorislik kelajak kurtagi, binobarin, ajdodlarsiz avlodlar ham bo'lmaydi. Ajdodlar bunyod etgan moddiy va ma'naviy boyliklar bilan barhayotmiz. Ulug' odamlarning ulug' ishlari toshga bitilgan yozuvlarda, tasviriy san'at durdonalarida, kitob zarvaraqlarida, badiiy obrazlarda o'z aksini topadi, ularning nolari og'izdan-og'izga o'tib asrlar osha yashab kelmoqda. Xullaskalom, xotira bilan tirikmiz, xotira bilan ulug'miz. Inson xotirasiga ixlos, merosga ixlos – xalqimizning azaliy an'alariga, asriy qadriyatlariga e'tiborning bir ko'rinishidir.

Xalqimiz orasida oilaviy turmush bilan bog'liq ko'pdan ko'p milliy an'analar mavjud. Shulardan biri chaqaloqqa “momo” bo'lish odati. Qishloqda avvallari ko'p bolali, nevarali-chevarali, el ichida kayvoni bo'lgan, ko'pni ko'rgan kampirlar momolik (doyalik) qilishgan. Momo ko'magi va nazorati ostida farzand tug'iladi. Bu ota-onaga, oilaga qanchalik quvonch va shodlik olib keladi. Shu narsa xarakterliki, bola ulg'ayib voyaga yetganda ham doya “momo”siga ixlos bilan qaragan, u kishini hamisha hurmat qilgan, “momo” esa uni “nevaram” degan, qisqasi umr bo'sag'asida bog'langan mehr ipi uzilmaydi. Hozirchi? Tug'ruqxonalarda hali turmush tajribasiga ega bo'lmagan, momolar an'anasidan mutlaqo bexabar hamshiralar doyalik qilishadi. Buning ustiga ilgarilari xalqimiz orasida uyat tuyg'usi kuchli bo'lgan o'zbek ayollari ko'z yorganda erkaklar nigohi tushmaslik kerak edi. Endi tug'ruqxonalarda ayollarning nomahram kishi huzurida qanday ruhiy holatni boshdan kechirishini bir tasavvur qilib ko'ringga! Bizningcha tug'ruqxonalarda tajribali chaqaloqni tarbiyalash siridan xabardor hamshiralar doyalik qilishi lozim.

Beshik to'yi an'anaviy o'zbek xalq oilaviy-maishiy udumlaridan biri. Beshik O'rta Osiyo sharoitida bola tarbiyalashning asosiy vositasi hisoblangan. Beshik chaqaloqni issiq-sovuqdan, zax va namdan saqlagan. Xalq tabiblarining fikricha, bola yotganda uning oyoq-qo'li qanchalik kam qimirlasa, u shunchalik sokin vat inch uxlaydi. Beshik to'yi ko'pincha birinchi farzand sharafiga, chaqaloqning qirqi chiqqanidan so'ng, yosh ota-ona uyida nishonlanadi. O'sha kungacha go'dak vaqtincha boshqa beshikda yotib turadi. Beshik to'yiga qudalar, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni faol qatnashadi. Kuyov tomon beshik hozirlaydi (Surxondaryoda), uni bezatadi, yasatadi, ziyofat beradi. Kelin tomon ham chaqaloqqa kiyim-kechak, sarupolar bilan kelishadi. Bolani uning kindigini kesgan “momosi” yoki ko'p bolali ayollardan biri beshikka belaydi, so'ngra shirin “ona allasi” aytiladi. Beshik ustidan tanga pullar, qand-qurslar sochadilar. Marosim kechgacha davom etadi. Turg'unlik yillaridagi ateistik kurash oqibatida beshikka qarshi kurash olib borildi, hatto beshiksoz ustalar ham kamayib ketdi.. Beshik bilan bog'liq bo'lgan xalqimiz an'alarini davom ettirish, beshik to'yiga keng yo'l ochib berish lozim. Biz bunda “nodon xatoni takrorlaydi, dono xatoni tuzatadi” degan hikmatga amal qilishimiz zarur. Yaqin-yaqingacha qoralab kelingan chilla tutish odati ham aslida bola va ona sog'ligini muhofaza

qilishga qaratilgan edi. An'anaga ko'ra chaqaloq va ona qirq kungacha uydan chiqmasligi, bolali uyga begona odam qadam bosmasligi, chillalik uyda chiroq o'chmasligi kerak. Keksalar chaqaloqni nozik gulag qiyoslaydilar. Shu sababdan ham uni nihoyatda ehtiyot qilish lozimligi uqtiriladi. Hatto chaqaloqni uchunadi deb qorong'uda olib yurmaganlar. Momolar onaga qarata: - bolangni yomon ko'zlardan asra deb nasihat qiladilar. Go'dakning qo'lga yoki do'ppisiga ko'zmunchoq taqib qo'yadilar. Chillasi chiqqandan keyingina chaqaloqni qutlagani qarindosh-urug'lar kela boshlaydi.

Surxon vohasida bola tarbiyasi bilan ko'pgina milliy an'analar saqlanib qolgan. Bolaning e'tiqodi, xulq-atvori oilada shakllana boshlaydi. Ota-ona farzandlarining birinchi tarbiyachisi, oila esa uning dastlabki maktabi. Bola tarbiyasi bog'liq bo'lgan xalq hikmatlarini bilish – har bir ota-ona uchun farzdir. Xayrli ishning ertasi yaxsghi degan gap bor. Shunday ekan bola tarbiyasini tug'ilgandan boshlash kerak. Ta'lim berishdan kechiksangiz ham tarbiya berishdan kechikmang degan naql bejiz aytilmagan. Har bir ota-ona, tarbiyachi shuni bilishi zarurki, odam miyasining og'irligi 1500 grammga yaqin. Unda 15 mlrd. Aql hujayesi bor. Odam miyasida soat sayin 25 vatt biotok hosil bo'lib turadi. Inson aqli 10^{15} ya'ni bir kvadralon axborotni qabul qilish va saqlash imkoniga ega. Hozir 6000 dan ortiq kasb-hunar turi bor. Mehnat taqsimoti odamlar qobiliyatining har xil bo'lishiga olib keladi. Hamma qobiliyatli bo'lgani bilan har bir shaxs qobiliyati takrorlanmas, ya'ni har xil. Hamma Rafael yoki surxonlik musavvir Ro'zi Choriyev bo'lavermaydi. Bir odam shoir, biro dam musiqachi, boshqalai dongdor sohibkor, mashhur mirishkor, mohir pedagog, epchil shifokor bo'lishi mumkin. Birov tosh, birov gul. Lekin ikkoviyam o'z joyida aziz. Hozir odam o'z imkoniyatining o'ndan bir qismidan foydalanmoqda. Bordi-yu, uning yarmini ishga solsa, 40 ta chet tilini o'zlashtirib olishi mumkin. Ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, bola ikki yoshdan yaxshi va yomonni ajrata oladi, uch yoshdan boshlab aqliy taraqqiyot uchun keng maydon ochiladi. Aqliy qobiliyatning 50 foizi to'rt yoshidan, 30 foizi sakkiz yoshidan, qolgan 20 foizi keying yoshlarda yuzaga chiqadi. Jumladan Mardonaqul baxshining o'g'li Xushvaqt baxshi do'mbira chalishni va doston aytishni uch yoshidanoq o'rgana boshlagan. Mashhur bastakor Muxtor Ashrofiy 3-4 yoshdayoq o'zining musiqaga bo'lgan qobiliyatini namoyon qilgan. Chingiz Axmarov 5-6 yasharligidan rassomlikka havas qo'ygan. Ota-onalar shuni bilishlari lozimki, yaxshi odat ham, yomon odat ham yeti yoshgacha shakllanadi. Atoqli pedagog K. D. ushinskiy fikricha, olti yoshar bolaning bir oylik tarbiyasi o'n yashar bolaning bir yillik tarbiyasiga tengdir. Besh yoshar bolada biron bir hissiyot umrbod esidan chiqmaydi. "Yeti yoshdagi odat, yetmish yoshda ham saqlanadi" degan gap ana shundan kelib chiqqan.

Hozirgi zamon fani frenologiya degan ta'limotning xatoligini isbotlamoqda. Bu qarashga ko'ra odamning aqli va zehni miyaning katta-kichigiga bog'liq emish. Ilmiy dalillar bu

fikrni rad qiladi. Masalan, A. Eynshteynning miyasi – 1500 grammga yaqin, Yozuvchi Anatoliy Fransning miyasi 1170 gramm bo'lgan. Aksincha, bir ovsarning miyasi – 2850 grammni tashkil etgan. Ayrim tadqiqotchilar oilada bola kam bo'lsa, ular mashhur kishilar bo'lib yetishadi degan fikrni olg'a suradi. Hayot bu fikrni rad qiladi. Ulyanovlar oilasida olti bola, I. I. Mechnikovlar oilasida o'n olti farzand bo'lgan. Samarqandlik Hamid Ergashevlar oilasini butun Respublika biladi. Bu oilada 12 ta farzand tug'ilib voyaga yetgan. Bulardan ma'lumki, insonning har tomonlama kamol topishi miyaning katta-kichikligiga yoki oila farzandlarining oz-ko'pligiga emas, balki tarbiyaga bog'liq. Shu narsa haqiqatki, kishi yoshligidan fikrlashga odatlansa, keksayganda ham miya vazni deyarli o'zgarmaydi, aksincha, miyasini ijodiy fikrlashga majbur qilmagan kishilarning miyasi 70 yoshga yetganda 200 gramgacha kamayib ketadi. Xullas, har bir ota-ona bola organizmining imkoniyatlarini tivojlantirishni va uni voqelikka aylantirish qonuniyatlarini, yo'llarini puxta egallab olmog'I darkor. Zero, inson hayoti bolalikdan boshlanadi. O'zbek xalqining “vaqting ketdi, naqding ketdi”, “Bugungi ishni ertaga qo'yma”, “Qolgan ishga qor yog'ar” kabi hikmatlari katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Chunki bola tarbiyasi faqat ota-ona uchungina emas, balki butun jamiyat uchun ham qimmatlidir. Ota-o'g'il o'rtasidagi munosabat to'g'risida shunday bir ibratli gap bor: bolaning 1-6 yoshgacha bo'lgan davrda u hokim, -ota esa tobe, o'g'lining – 7-17 yoshlik chog'larida ota hokim, bola – tobe, 18 yoshdan so'ng esa ota bola do'st va hamkor bo'lishi kerak ekan. Shu bilan bog'liq holda, xususan, otalarga shunday fikrlarni aytishni lozim topamiz: - birinchidan, zinhor farzandlaringizni urmang. Xususan, ota kaltagining zarbi uning ko'nglida bir umr dog' bo'lib qoladi, xalq donishmandlari o'z farzandlarini jismoniy jazolagan otalarga qarata: “ – kimning aqli yetmasa, uning qo'li yetadi”, - deb kesatib qilib gapirganlar. Oqsoqollar ham kaltak yegan bola “qashqa tayoq” ya'ni battar bo'ladi deyishadi. Chunki teskari ta'sir qonuni amal qiladi. Ammo otaning bolaga nisbatan asosli tarzda talabchan va qattiqqo'l bo'lishini xalq pedagogikasi inkor qilmaydi. Masalan, Ulyanovlar oilasida bola gapga ko'nmasa “Qora kreslo”ga ma'lum vaqtgacha o'tirg'izib qo'yish odatlari bor edi. Volodya ham shu joyda bir necha bor “jazo” olgan. Ikkinchidan, bolani haddan tashqari erkalatmaslik kerak. “Bola aziz, qilig'iundan ham aziz”. Bolani qiyinchiliklardan qo'rqmaslikka, mehnatsevarlikka o'rgatish kerak. Inson shaxsi, irodasi, xarakteri qiyinchiliklarni bartaraf qilish orqali kamol topadi. “Agar bolaning qiyinchiligi bo'lmasa, uni bozordan sotib oling”, - degan ekan mashoyixlardan biri. Qobusnomada ham “dangasalik badanning buzilishiga, kasallanishiga sababchi bo'ladi... . badanni o'zinga bo'ysundir va uni qahr bilan itoat qilishga buyur. Har bir kishi 'z badanini o'ziga bo'ysindira olsa, o'zgalarning badanini ham o'ziga qarata oladi, - deyilgan. (Qobusnoma. T.:1968, 34-bet) Uchinchidan, bolani sira ham jin, ajina, alvasti kabi g'ayritabiiy kuchlar bilan

qo'rqitmaslik kerak. Chunki, qo'rqish oqibatida bola ko'zi yo'q narsalarni ko'ra boshlaydi. "Qo'rqqanga qo'sh ko'rinadi", "Qo'rqish va adashish egizakdir" deganlaridek bunday salbiy hishayajonlar bola iste'dodiga yomon ta'sir etadi. "Yolg'on – qo'rquvdan kelib chiqqan",-degan ekan xassos adib Oybek. Xullas, bolani qo'rqitib emas, ishontirib tarbiyalash kerak . To'rtinchidan, bola qiziquvchan, sezgir, ziyrak bo'ladi. U hamma narsani so'ragisi, ko'proq narsani bilgisi keladi. Bu nima? Nega unday? Nima uchun? Nega kerak? Kabi savollar asli bolalikdan boshlangan. Ba'zan bola o'zining "nazariy" savollari bilan, hatto kattalarni ham dovdiratib qo'yadi. Kattalar, ota-onalar bola savoliga qo'l siltammay, aniq-ravshan javob berishlari lozim. Aks holda bola ongida, ko'nglida "bo'sh joy" qoladi. Beshinchidan, bolaga yoshlik paytidan madaniy merosdan saboq berib boorish kerak, toki ular asta-sekin o'lkamiz tarixini, xalqimiz urf-odatlarini, odob-axloq qoidalarni bilib olsin. Merosga ixlos bolalikdan boshlansin.

Ota degan ulug' mansabga sazovor bo'lish – katta baxt. "Bu kunlarga yetganlar bor... yetmaganlar bor" . Ko'p asrlardan buyon eng avval otadan ibrat oladi. Chunki bola qo'lida ko'zgu ushlab tug'ilmaydi. Bola otadan andoza olishga, unga o'xshashga harakat qiladi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganlaridek bola eng avvalo ota-onasi, uyidagilardan ibrat oladi. Aytishlaricha biro damning o'g'li otasiga qarashmas ekan. Odamlar bu beodob boladan nafratlanib uni uramiz deb kelishibdi. Ota ruxsat bermabdi. Men ham otamga shunday qilar edim, endi javobi qaytdi, degan ekan. Qisqasi, yaxshi otalar bo'lmagan joyda yaxshi farzandlar ham bo'lmaydi. Bobolar aytganidek farzan mevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydi. Daraxt qanchalik yaxshi parvarish qilinsa , mevasi ham yaxshi va shirin bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda tarbiyachining o'zi yaxshi tarbiyalangan bo'lishi kerak.

O'rta Osiyoda ona azaldan ulug'langan. Ona , Quyosh, Suv, Havo, Yer kabi hayot asosini tashkil etadi. Suvga g'arq bo'layotgan chol ham "onajon" – deya hayotdan ko'z yumgan ekan. Iskandar zolim bo'lgan lekin o'layotganda onasi ko'ziga ko'ringan. Bir zamonlar ona tangrilardan ustun sananlib, u mabudalar darajasiga ko'tarilgan. Hatto yil qurg'oq kelib hosil kam bo'lsa, odamlar suv homiysi – sulton xotindan madad so'raganlar:

Suv xotin, sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.
Ko'kkina qo'zim yig'laydi,
Ko'k o'tlarin tilaydi.

Havo yog'ib ko'l bo'ldi,
Arpa bug'doy mo'l bo'ldi,

Suv xotin, sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.

Yomg'ir yog'dir xo'l bo'laylik,
Biz ham senga jo'r bo'laylik,
Ko'klamda o'ynab kulib,
Ham shoxu, ham zo'r bo'laylik.

Suv xotin, sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.
Yomg'ir yog'dir xo'l bo'lsin,
Sutu qatiq mo'l bo'lsin.

O'rta Osiyoda yashab zardushtiylik diniga topingan ajdodlarimiz yog'ingarchilik va hosildorlik ma'budasi Anaxitaning mo'jizalariga ishonishgan. O'lkamizning qadimgi haykaltaroshlari Anaxitani bir qo'lida qizil olma yoki anor ushlab turgan ayol suratida tasvirlangan, uning sopoldan yasalgan son-sanoqsiz haykalchalari topilgan. Nafosat va go'zallik, jasurlik va botirlik, mehr-shafqat va o'tkir aql-idrok, mo'l xosil va baxt Anaxita timsolida o'z ifodasini topgan.

O'zbek xalqi og'zaki ijodida Ona- tinchlikka intilish, vafodorlik yaxshilik, himmat va sadoqat ramzi sifatida talqin qilinadi. Termiz yaqinidagi "Qirq qiz" qo'rg'oni ham xotin-qizlar sharofati bilan qurilgan. Rivoyatlarga qaraganda dovyurak Guloyim boshliq qirq qiz tulpor otlarga minib, qo'lida qilich o'ynatib dushmanga qiron slogan. Buyuk Baqtriya davrida mamlakatni boshqaruv ishlarida ayollar faol qatnashib, jangu-jadallarda erkaklarga yelkadosh bo'lgan. Chunonchi, jasur sak ayol Zarina massaget malikasi To'maris shular jumlasidandir. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, o'sha davrlarda erkaklar bilan ayollarning ijtimoiy ahvoli teng bo'lganlar, hatto xotin-qizlar erkaklarga qaraganda ko'proq huquqqa ega bo'lganlar. Aytishlaricha bir kuni, Qo'qon xoni Umarxon askarlari Buyuk ipak yo'li yoqasida joylashgan O'ratepa shahrini qamal qiladi. Bek va uning qizini asirga oladi. Qizni xon haramiga keltirishadi. Xontaxta ustida pichoq va anor turgan edi. Xon: -Seni shoira deb eshitdim, shu anor haqida bir chiroyli bayt to'qi-chi, - debdi. Darvoqe, uning o'zi ham shoir edi. Qiz bayt ham, she'r ham aytmadan, xon ko'ziga tikilib: -Bag'rin qonga to'ldiribdursan! -deb unga javob qaytaribdi. Bundan g'azablangan shoh chapak chalib: -Olib chiqing buni, - deydi. Biroq ko'zidan olov chaq nab turgan qiz xondan sira seskanmaydi. Bu shoira Dilshob Barno edi. Uning shojoati, dovyurakligi hayotini ham, nomusini ham saqlab qoldi. O'sha paytda qiz endi o'n oltiga to'lgan

edi. Taqdir taqazosi bilan Umarxon olamdan o'tdi. Jasur qiz Dilshod bir asr umr ko'rdi. Ana shunday jasur, vafodor va zukko ayollar siymosi xalqimiz qalbida abadiy yashaydi. Zero vatanga sadoqat, dushmanga nafrat, lafzi halollik, o'z yoriga vafodorlik, farzandlariga mehribonlik – soddadillik o'zbek ayolining eng yaxshi fazilatidir.

O'zbekistonda “o'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qilig'I boshqa” degan xalq maqoli bor. MA'lum bo'lishicha ko'p bolali onalar uzoq umr ko'risharkan. O'z va undan ortiq farzandi bor onalarning yuz yoshdan ziyod umr ko'rganligi ma'lum. Tug'ilgan har bir bola ona organizmini yashartiradi, bola boqish instinkti uni har qanday kasallik va ofatlardan saqlaydi, shuning uchun ham ayollar erkaklarga qaraganda uzoq yashaydi. Bundan tashqari, el ichida ko'p bolali ayollar el ichida eng hurmatli, mo'tabar hisoblanadi, yaxshi ishlarni ko'p bolalXotinini ayollar boshlab beradi, uying to'ri ham ko'p bolalik onalarga bag'ishlangan. “Bolasi ko'p oilaning baxti ham mo'l bo'ladi”. Uy-ro'zg'or barakasi ham ona bilan yonma-yon yashash, uning aziz nafasini his etish, so'zlarini tinglash, nurli ko'zlariga boqish – farzand uchun naqadar quvonchli, bu qadriyatlarni dunyoning hech bir lazzati bilan almashtirib bo'lmaydi.

O'zbek ayolining jufti haloliga vafodorligi, sadoqat bobida yaktoligini quyidagi ma'lumotlardan ham bilsa bo'ladi: Qumqo'rg'onlik Oyxol momo turmush o'rtog'I urushda vafot etganda 19 yoshda edi. Yolg'iz o'g'li Tohirning boshqa kishini ota deyishini istamadi. Onalik mehrini, butun qalb qo'rini ona shu yolg'iz o'g'liga bag'ishladi. Bugungi kunda Oyoxl momoning bir etak nevaralari, chevaralari bor. U o'z baxtini ham, armonlarini ham ana shu bolalarining shodon chehrasida deb biladi. Farzand onaga mo'jizaviy kuch bag'ishlaydi: Ulug' vatan urushida nemislar Rossiya qishiga bardosh berolmay, mag'lu b bo'la boshlaydi. Shunda ular ruslar sovuqqa qandaychidar ekan? Deb antiqa tajriba o'tkazishadi. Qahraton qishda erkak-ayolni hovuzning muzday suviga cho'miltiradi. Odamlar qanday jon berar ekan deb ularni kuzatadi. Suvdagi odamlardan deyarli bari hayotdan ko'z yumadi, lekin bir ayol tirik qoladi, chunki uning uchta bolasi uzoqdan qarab turgan edi. Shu tufayli onada favqulotda bir qudrat vujudga keladi “Xotinning qirq joni bor” deyishga uning o'z farzandlariga nisbatan o'ta g'amxo'rliги ham sabab bo'lgandir ehtimol.

Ona suti umuqaddas, hamma uchun tabarruk ne'mat. U tufayli dushman do'stga aylanadi, o'limga mahkum etilganlarning hayoti saqlab qolinadi. Aytishlaricha qadim zamonda bir zolim shoh o'tgan ekan. Shohning bir yomon odati bo'lib, uning tug'ilgan kunida qaysi bola 15 yoshga to'lsa, uni dorga osar ekan. Navbat bir emizikli ona farzandiga kelibdi. Tadbirkor ayol o'g'lini o'limdan qutqarib qolish rejasini tuzibdi. U o'z sutidan solib bir kulcha pishiribdi va o'g'liga tayinlabdi: shoh senga o'limi oldidan oxirgi iltimosingni ayt deydi, shu payt kulchaning yarmini unga bo'lib bergin, yarmini o'zing yegin, deb uqtiradi. Odatga ko'ra shoh bola iltimosini bajo keltiradi, kulchani yeyishi bilan yigitga nisbatan shohning mehri uyg'onib, uni xuddi

tug'ishgan ukasidek his qiladi, yigitni bag'riga bosgisi keladi va nihoyat u o'z hukmini bekor qilibdi, yigitni saroyga chaqiribdi, shu kundan boshlab o'zi tug'ilgan kuni dunyoga kelgan bolalarni o'ldirish odatini bekor qilibdi, bu ona mehrining kuchi edi. Ha, ona –hayot ramzi, yaxshilik rramzi. Dog'iston xalq shoiri Rasul Hamzatovning xalqaro onalar kunini o'tkazish haqidagi taklifini qo'llab quvvatlamog kerak.

Baliq suv bilan tirik degandek, insonning tirikligi ham, hayot go'zalligi ham bari onalar tufayli.

Oila, ota-ona baxti-bolalarga bog'liq. Aqlli bolalar ota-onalarining qadr-qimmatiga yetib, imkoni boricha ularga xizmat qiladilar. Bola ota-onadan umrbod qarzdor, shunga ko'ra, farzand uchun ota-ona dunyoda eng ulug' odamlar bo'lib hisoblanadi.

Boshni fido ayla ato qoshiga!

Jismni qil sadqa ano boshiga!

Tun-kununga aylagali nurposh,

Birisin oy angla, birisin quyosh!

Rivoyat qilishlaricha bir yigit otasini zo'r hurmat qilgan ekan. Onasi vafotidan so'ng ham uning qadriga yetibdi. Buni eshitgan biro dam uni sinash uchun unikiga keladi. U ovqat qiladi. Birinchi otaasiga yediradi. So'ng o'zlariga suzdi. Mehmon hammasini kuzatdi. Undan sen otangni joyiga yotqizayotganingda nega og'zini qimirlatdi, deb so'radi. Meni "duo" qildi dedi. Haligi odam o'g'lining otasiga sodiqligini ko'rib qoyil qolgan edi. Ha, farzandlar ota-onaning umidi bo'lganidek, butun elning umidi ham yoshlar tarbiyasiga bog'liq. Buyuk vatandoshimiz Beruniy menga yoshlarni ko'rsatsangiz mamlakatingiz ertasi qanday bo'lishini aytib beraman, deganda naqadar haq. Qisqasi, farzandlar – kelajagimiz, umidimiz, quvonchimiz ekan, ularni ko'ngilda armon qolmaydigan qilib tarbiyalaylik!

Ota-oansiga ozor berib ularning dillarini og'ritadigan bola hech qachon baxtli bo'lmaydi. Donolar aytganidek,

Istasangkim yetmasin senga balo,

Ota-onangga qilma sira jafu.

Yomon bolalarning baxtsiz bo'lgani haqida shunday hikoyat bor: Er-xotin befarzand ekan. Kecha-yu kunduz tangriga nola qilib farzand so'rashibdi va nihoyat ularning orzu-umidi ushalib, ikki o'g'illik bo'lishibdi. Ota-ona ularni erkatoy qilib o'stiribdi. Kunlar o'tib, otasi qazo qilibdi. Endi ona bolalarimm menga quvvat bo'ladi deb o'ylabdi. Biroq o'g'illari bezori bo'lib

o'sibdi. Hatto ular qo'ni-qo'shnilarga ham ozor berar ekan. Oxiri-oqibatda o'g'illarning qilguliklariga chiday olmagan ona umrida birinchi bor ularni "quyosh nuriga, ona mehriga zor bo'linglar", deb qarq'abdi. Shu payt qop-qora dovul boshlanib, bolalar qora qushlarga aylanib qolibdi, ko'zlari yorug'likni sezmay bir umr g'orlarda kun kechiribdi. Ha, farzandlarni ota-onalarga mehribon bo'lish tuyg'usida tarbiyalashga xizmat qiladigan bunday hikoyatlarni yuzlab keltirish mumkin. Biz farzandlarimizni tarbiyalash borasida ajdodlarimiz an'alarini davom ettirishimiz kerak. Biroq keying yillarda xalqimiz orasida keksayib qolgan ota-onasini qariyalar uyiga tashlab, kayfi-safo qilib yuradigan olift farzandlar paydo bo'lib qoldi. Axir bunday toshmehrlik o'zbek xalqiga mutlaqo yot edi-ku! Buyuk alloma va shoir Mirzo Bobur aytganidek:

Har kimki vafo qilsa , vafo topqusidir

Har kimki jafu qilsa jafu topqusidir.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.

O'zbek oilalari katta bo'lsada, unda hamisha o'zaro hurmat, bir-biriga ko'maklashish kabi olijanob hislatlar mujassam bo'lgan. Xususan, qariyalar bilan yoshlar o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-shafqat hukm surgan. Oilaviy hayotning muhim tarkiiy qismlaridan biri qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlardir. Ular kelinga bilmaganini o'rgatadi, kelini ishlasa nevaralariga qarashadi. "Qars ikki qo'ldan chiqadi" degandek, kelin ham qaynonani ona deb biladi, onasidek hurmat qiladi, ulug' ayyom kunlari sovg'a-salom, tabriknomalar tuhfa qiladi. "Sabzi bargi darvish" degandek, ozgina in'om-e'tibor ham keksalar qalbini g'ururga to'lg'azadi. Oqila kelin qaynonani xonadonning qut-barakasi deb biladi. U "hurmat qilsang, hurmat ko'rasan" deb biladi. Iffat va hayoga burkangan kelin vaqti kelib bir kun o'zining ham qaynona bo'lishini unutmaydi. Bir-biriga mehribon qaynona va kelinlarni qancha maqtasa ham kamlik qiladi.

XIX asrda yashab ijod qilgan buxorolik mashhur faylasuf Ahmad Donish qaynona va kelin o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rgangan. Chunonchi, u shunday deb yozadi: "Qaynona va kelin o'rtalaridagi munosabt ustida gap borganda shuni aytish lozimki, kelin va qaynona o'rtasidagi husumatning nimadan bo'lishi ancha chigal masala bo'lib, uni har kim aniqlay olmaydi. Qolaversa, buning sababini ko'rsatib aytilgan og'zaki so'zlar kishini qanoatlantirmaydi. Qaynona va kelin o'rtasidagi janjallarning chegarasi, aytgan so'zlarining to'xtami yo'qdir. Ular urush-talashlarda foyda-ziyon chiqishini surishtirmay, hech narsaning tayini bo'lmasada, bir-birlariga osilishgani osilishgan. Aqliy-naqliy dalillar keltirganing bilan ularning xusumatini

to'xtatib bo'lmaydi. Nima uchun urushganlarini o'zlari ham bilmaydilar". Albatta, "oyda ham dog' bo'ladi" degandek, oilada ham, jumladan, qaynona va kelin o'rtasida ham ba'zan kelishmovchiliklar sodir bo'lib turadi. A. Donish aytganidek, ularning bir haq, biri nohaq. Arzimagan bohona bilan yaxshi munosabatni buzmaslik kerak. Chunki bir kunlik janjal tufayli ro'zg'ordan qirq kunlik baraka ketadi.

Jahl ahli bilan kimki ulfat bo'lgay,
Ul ulfat ichra yuz ming ofat bo'lgay.

degan Hazrai Navoiyning o'gitini sira unutmaslik kerak. Shubhasiz, qaynona va kelin o'rtasida yosh, tajriba, qarindosh-urug'chilik jihatidan tafovut bor. Lekin aql-idrok bilan ish tutilsa, hech qachon ko'ngil qorachilik bo'lmaydi.

Qaynота ham ota, kuyov ham o'g'il. Kuyov avval qaynота xonadoniga nomahram bo'lsa, endi eng yaqin odam hisoblanadi. Kuyovning baxti uch oilaga baxt keltiradi. O'zbek xalq hikmatlarida "O'g'li borning o'rni bor, kuyovi borning ko'rki bor", "ahmoq o'g'ildan aqlli kuyov yaxshi" deyiladi. Albatta, kuyovlar ham har xil bo'ladi.

Yaxshi bo'lsa sanam qizning kuyovi,
Kuni-tuni farog'atda o'tadi.
Yomon bo'lsa sanam qizning kuyovi,
Kuni-tuni uqubatda o'tadi.

deyilgan o'zbek xalq dostonlarida.

Qaynота yaxshi bo'lsa yigit baxti. Kuyov ham bamisoli nozik nihol. U ham o'z navbatida izzat-hurmat kutadi. Kuyov ikki og'iz shirin so'zga, hushmuomalaga, iliq mehrga muhtoj, uni ardoqlasangiz, kuyov ham sizni ardoqlaydi. Bu esa insoniy munosabatlarni ulug'laydi, oilani mustahkamlaydi. Biroq oz bo'lsada hudbin, ta'magir, qizini yo'lda ozdiruvchi va u bilan birgalashib kuyovga huruj qiluvchi, yosh oilaning buzilishiga sabab bo'luvchi riyokor qaynота-qaynonalar ham yo'q emas. Bunday xatti-harakatlar elimizning muqaddas an'alarini, urf-odatlarini oyoq osti qilishdan boshqa narsa emas. Xalqmiz bu haqda ko'pgina ibratli rivoyatlarni yaratgan. Aytishlaricha bir kambag'al yigit taqdir taqazosi bilan shohning qiziga uylanibdi. Lekin shoh qizini maqtab kuyovini yov deya kamsitar ekan. Biroq qizi kuyovini sevardi. To'satdan mamlakatga dushman qo'shinlari bostirib keladi. Shoh o'g'li birinchilar qatori jangga ketadi. Kuyovi undan keyin jo'naydi. Shoh qiziga qarata: -akang birinchi bo'lib jangga tashlandi, erring esa eng oxirida ketdi, hali u xoinlik qilmasa edi,-debdi. Qiz uzoqdan jangni

kuzatadi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, akasi dushman bilan qo'shilib otasiga qarshi jang qilayotgani, kuyovi aksincha, arslonday dushmanga tashlanib, yovni bir boshidan qirayotganini guvohi bo'ladi. Shoh bu voqeani ko'rib, yoqasini ushlaydi. Kuyovi yarador bo'lib safdan chiqadi. Shu orada sulh tuziladi, shoh esa boj to'laydigan bo'libdi. G'olib shoh: - o'g'ling men tomonga o'tmaganda sen meni yengarding, o'g'ling sotqinlik qildi. Biroq otasiga vafo qilmagan odam menga vafo qiladimi, deb, uni chopib tashladim. Biroq, anavi yarador yigit jasur ekan, agar yarador bo'lmaganida senga g'alaba keltirar edi, senga eng sodiq ekan, agar hamma askaring shunday bahodir bo'lsa, ular Iskandarni ham yengishardi,-debdi. Kuyov-yigitga qarab ota-onang bormi? Sening mardliging evaziga shunday bahodir o'g'il o'stirgan volidai padaringga bir xalta oltin beraman,-debdi g'olib shoh, -ha, bor,-deb qaynotasini ko'rsatibdi yigit. Unday bo'lsa sen uning kuyovi emassan, uning haqiqiy o'g'lisan, shu sababli men boj olishdan voz kechaman,-debdi. Bu voqeadan keyin shoh: "sen mening kuyovim emassan, farzandimsan, deb undan kechirim so'ragan ekan". Kuyov ham o'g'il degan nom ana shundan qolgan ekan. Xullas, aqli qaynota va qaynona nasib qilgan kuyov baxtiyor bo'ladi.

XULOSA

Xalq an'analari va milliy qadriyatlarimiz o'zligimizni anglashning dunyo miqyosida o'zbekona insonparvarlik, vatanga sadoqat, insonni qadrlash, elga hurmat, o'ziga xos axloqiy yuksaklik, aqliy teranlik, ruhiy mustahkamlikning na'munasidir.

Xalq og'zaki ijodidagi oddiy duolar, olqishlar, irim-sirimlar, pandnomalar, maqollar, qo'shiqlardan boshlab, xalq eposigacha bo'lgan janrlarning barchasida inson omili, uning tarbiyasi, kamoloti, yaxshi yashashga intilishi bu sohada sabrli, kurashchan, tadbirkor, keng dunyoqarashli bo'lish uqtiriladi. Barcha janrlarda inson tarbiyasi, ezgulikni ulug'lash asosiy o'rin egallaydi. "Avesto"da aytilganidek, ezgu o'y tufayli tug'ilgan ezgu maqsaddagi xalq og'zaki ijodi na'munalarida ezgu ish g'oyasi yetakchilik qiladi.

Biz bunga hozirgacha maxsus, monografik tarzda tadqiq etilmagan xalq inonch-e'tiqodalari va irim-sirimlarini qisman o'rganish jarayonida ham hosil qildik.

Mavzuni o'rganar ekanmiz quyidagi xulosalarga keldik:

1)Xalq inonch-e'tiqodlari va irim-sirimlari tematik jihatdan keng, son jihatdan ezgu maqsadga yo'naltirilgandir.

2)Inonch-etiqodlar va irim-sirimlar kecah yoki bugunning mahsuli bo'lmay, unda insoniyatning ibtidoiy davridan mifologik qarashlaridan to bugungi kungacaha bo'lgan taraqqiyotdagi hayotiy, xayoliy, ilmiy fikrlari, tajribalari, qarashlari o'z ifodasini topgan.

3)Inonch-e'tiqodlar va irim-sirimlarning barchasi bugungi kun dunyoqarashi bilan qaraganda bir xil ijobiy baholanmasa ham ular o'zi yaratilgan davr nuqtai-nazaridan ijobiy ahamiyatga ega.

4)Ayrim olimlar sho'rolar davrida (ba'zan hozir ham) ta'kidlagani kabi irim-sirimlar razolat yoxud eskilik belgisi emas, balki o'sha irim-sirimlar tarbiya, ishonch, e'tiqod vositasi bo'lib xizmat qilgan , masalan, suvga tuflama ajina chaladi deyish bilan nafaqat qo'rqitgan, bolaga tabiatni e'zozlash, suvni pok saqlash uning muqaddasligini uqtirish ta'kidlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.I. Karimov “Yuksak ma’naviyat engilmas kuch” – T:Ma’naviyat, 2008
- 2.Jirmunskiy V. M., Zrifov X. T. Uzbekskiy narodniy gerocheskiy epos. M:1947
- 3.Mirzaev T. O’zbek baxshilarining epik repertuari. – T:Fan.1979
4. Mirzaev T. G’pos I skazitel’ – T:2008
- 5.Murodov M., Ergashev A. “Alpomishnoma” 1-kitob. – T:Mehnat. 1999
6. Murodov M., Ergashev A. “Alpomishnoma” 2-kitob. – T:Mehnat. 2000
7. Murodov M., Ergashev A. “Qadriyatnoma” 1-kitob. – T:Mehnat. 2001
- 8.O’zbek xalq pedagogikasi. – T:1996
9. Ergashev [A.Qashqadaryo](#) va Surxondaryo dostonchiligi. – T:Fan. 2008
10. Ergashev A., Uzoqov B. Dostonlar-odobnoma darsligi. - Qarshi: Nasaf. 2004
11. Ergashev A., Jumanazarova D. Xalq dostonlari tarbiya qomusi. Jizzax. 2006
12. Murodov M. Sarchashmadan tomchilar T.-:1982
- 13.Murodov M. Ergashev A. “Alpomishnoma” 1-kitob T-1999
14. Murodov M. Ergashev A. “Alpomishnoma ”2- kitob T-2000
- 15.Murodov M. Hakimov N. Ergashev A “Qqadriyatnoma” 1-kitob T-2001
16. Ergashev A. Omonova G. Dostonlarda urf odatlar va ayrim qadriyatlar “Nasaf”,
2000
17. Ergashev A. Uzoqov B. Dostonlar odobnoma darsligi “Nasaf” 2004
18. Ergashev A.Jumanazarova D. Xalq dostonlari tarbiya qomusi Jizzax 2006
19. Ergashev A. Jumanazarav U. Xalq pedagogikasi va qadriyatlari.Jizzax 2007
20. Ergashev A. Ochilov K . Shunqor bolam, huy-yo huy “Nasaf”, 2003
21. Musurmonova O. Telegenev A. “Dostonlar tarbiya manbai” T.:”Ma’naviyat” 1999
22. Jovliyev T. An’analar - hayot sabog’I T.: “O’zbekiston” 1992